O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Namangan muhandislik – qurilish instituti

PYTHON DASTURLASH TILI

Namangan 2021 yil

UO‘K:

KBK:

I –

Jakbarov O., Goyipov U., Akbarov B.

Python dasturlash tili: O`quv qo`llanma – N.: “Namangan” nashriyoti, 2021 – 200 b.

Taqrizchilar: Namangan muhandislik-texnologiya instituti, Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish va informasion texnologiyalar kafedrasi dosenti **K.D.Ismanova**

Namangan davlat universiteti “Amaliy matematika” kafedrasining dosenti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent **N.Ataxanov**

Namangan muhandislik-qurilish instituti “Oliy matematika” kafedrasi professori, fizika-matematika fanlari doktori **V.Xojiboev**

Mazkur o`quv qo`llanma oliy ta`lim tizimining 5330200-Informatika va axborot texnologiyalari (sanoat ishlab chiqarishida) va 5330200 – Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar bo’yicha) ta`lim yo`nalishlari talabalari uchun mo`ljallangan. Qo’llanmada Python dasturlash tilining imkoniyatlari va unda ilovalar yaratish bo`yicha ma’lumotlar talabalar amaliy ko’nikmalarga ega bo’lishlari uchun bob va mavzular kesimida amaliy misollar yordamida tushintirib berilgan. Shuningdek, o`quv qo`llanmada Python tili bo`yicha asosiy tushunchalar amaliy masalalar bilan bog`lab mustaqil o`rganishga yo`naltiriladi. Ushbu o`quv qo`llanma talabalarni mantiqiy fikr yuritish qobiliyatini oshirish, ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga o`rgatish va yangi kompyuter texnologiyalari yordamida zamonaviy ilovalar ishlab chiqishni o`rgatishga mo`ljallangan. Shuningdek, o`quv qo`llanmadan mazkur tilni o`rganmoqchi bo`lgan barcha bilim oluvchilar keng foydalanishlari tavsiya etiladi.

ISBN 978-9943-328-58-2

Jakbarov O., Goyipov U., Akbarov B.

MUNDARIJA

SO’Z BOSHI

Bugungi kunda Internetning ommaviyligi haqida gapirish o’rinsiz. Internet hayotimizning bir bo’lagiga aylandi, biz uning xizmatlaridan har kuni foydalanishga odatlandik. Hozirda ixtiyoriy inson webtexnologiyalarning inson hayotining ta’lim, kommersiya, siyosat, ko’ngil ochar, … bo’laklariga kirib borganligini tasavvur eta oladi va uning guvohi va foydalanuvchisiga aylanmoqda.

Xususan, Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, elektron davlat xizmatlari va telekommunikasiya xizmatlari spektrini kengaytirish, telekommunikasiya infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoev tomonidan 2018 yil 19 fevral PF-5349-sonli “Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmonida ham bugungi kundagi AKT sohasida qator kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo’yicha alohida topshiriqlar berib o’tiladi.

Mazkur qo’llanma zamonaviy dasturlar yaratish, qiziqarli va o’ziga tortuvchi dasturlarni yaratish, vaqti kelsa ma’lumotlarmi yangilash kabi vazifalarni o’rgatishga mo’ljallangan.

Shu bilan birga, axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini boshqarish va joriy etish sohasidagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga xissa qo’shish maqsadida ushbu sohaning mutaxassislarini yetishtirishda manba sifatida ushbu o’quv qo’llanma ishlab chiqildi.

1-BOB. PYTHON DASTURLASH TILI BILAN TANISHISH

O`quv modullari

Python, CNRI, CWI, proyekt, OYD.

1.1. Python dasturlash tili yaratilishi tarixi

Python dasturlash tilini yaratilishi 1980 yil oxiri 1990 yil boshlaridan boshlangan. O`sha paytlarda uncha taniqli bo`lmagan Gollandiyaning CWI instituti xodimi Gvido van Rossum ABC tilini yaratilish proektida ishtirok etgan edi. ABC tili Basic tili o`rniga talabalarga asosiy dasturlash konsepsiyalarini o`rgatish uchun mo`ljallangan til edi. Bir kun Gvido bu ishlardan charchadi va 2 hafta davomida o`zining Macintoshida boshqa oddiy tilning interpretatorini yozdi, bunda u albatta ABC tilining ba'zi bir g`oyalarini o`zlashtirdi. Shuningdek, Python 1980-1990 yillarda keng foydalanilgan Algol-68, C, C++, Modul3 ABC, SmallTalk tillarining ko`plab xususiyatlarini o`ziga olgandi. Gvido van Rossum bu tilni internet orqali tarqata boshladi. Bu paytda o`zining "Dasturlash tillarining qiyosiy taqrizi" veb sahifasi bilan internetda to 1996 yilgacha Stiv Mayevskiy ismli kishi taniqli edi. U ham Macintoshni yoqtirardi va bu narsa uni Gvido bilan yaqinlashtirdi. O`sha paytlarda Gvido BBC ning "Monti Paytonning havo sirki" komediyasining muxlisi edi va o`zi yaratgan tilni Monti Payton nomiga Python deb atadi (ilon nomiga emas).

Til tezda ommalashdi. Bu dasturlash tiliga qiziqqan va tushunadigan foydalanuvchilar soni ko`paydi. Boshida bu juda oddiy til edi. Shunchaki kichik interpretator bir nechta funksiyalarga ega edi. 1991 yil birinchi OYD (Obyektga Yo`naltirilgan Dasturlash) vositalari paydo bo`ldi.

Bir qancha vaqt o`tib Gvido Gollandiyadan Amerikaga ko`chib o`tdi. Uni CNRI korparatsiyasiga ishlashga taklif etishdi. U o`sha yerda ishladi va korparatsiya shug`ullanayotgan proektlarni Python tilida yozdi va bo`sh ish vaqtlarida tilni interpretatorini rivojlantirib bordi. Bu 1990 yil Python 1.5.2 versiyasi paydo bo`lguncha davom etdi. Gvidoning asosiy vaqti korparatsiyani proektlarini yaratishga ketardi bu esa unga yoqmasdi. Chunki uning Python dasturlash tilini rivojlantirishga

vaqti qolmayotgandi. Shunda u o`ziga tilni rivojlantirishga imkoniyat yaratib bera oladigan homiy izladi va uni o`sha paytlarda endi tashkil etilgan BeOpen firmasi qo`llab quvvatladi. U CNRI dan ketdi, lekin shartnomaga binoan u Python 1.6 versiyasini chiqarib berishga majbur edi. BeOpen da esa u Python 2.0 versiyani chiqardi. 2.0 versiyasi bu oldinga qo`yilgan katta qadamlardan edi. Bu versiyada eng asosiysi til va interpretatorni rivojlanish jarayoni ochiq ravishda bo`ldi.

Shunday qilib 1.0 versiyasi 1994 yil chiqarilgan bo`lsa, 2.0 versiyasi 2000-yil, 3.0 versiyasi esa 2008-yil ishlab chiqarildi. Hozirgi vaqtda uchinchi versiyasi keng qo`llaniladi.

1.2. Python dasturlash tili imkoniyatlari

Python – bu o'rganishga oson va shu bilan birga imkoniyatlari yuqori bo'lgan oz sonlik zamonaviy dasturlash tillari satriga kiradi. **Python** yuqori darajadagi ma'lumotlar strukturasi va oddiy lekin samarador ob`yektga yo'naltirilgan dasturlash uslublarini taqdim etadi.

Pythonning o`ziga xosligi

- ✓ Oddiy, o`rganishga oson, sodda sintaksisga ega, dasturlashni boshlash uchun qulay, erkin va ochiq kodlik dasturiy ta'minot.
- ✓ Dasturni yozish davomida quyi darajadagi detallarni, misol uchun xotirani boshqarishni hisobga olish shart emas.
- ✓ Ko'plab platformalarda hech qanday o'zgartirishlarsiz ishlay oladi.
- ✓ Interpretatsiya qilinadigan til.
- ✓ Kengayishga moyil til. Agar dasturni biror joyini tezroq ishlashini xoxlasak shu qismni C yoki C++ dasturlash tillarida yozib keyin shu qismni python kodi orqali ishga tushirsa(chaqirsa) bo'ladi.
- ✓ Juda ham ko'p xilma-xil kutubxonalarga ega.
- ✓ xml/html fayllar bilan ishlash
- ✓ http so`rovlari bilan ishlash
- ✓ GUI (grafik interfeys)
- ✓ Web ssenariy tuzish
- ✓ FTP bilan ishlash

- ✓ Rasmli audio video fayllar bilan ishlash
- ✓ Robot texnikada
- ✓ Matematik va ilmiy hisoblashlarni programmalash

Pythonni katta proyektlarda ishlatish mumkin. Chunki, uni chegarasi yo`q, imkoniyati yuqori. Shuningdek, u sodda va universalligi bilan programmalash tillari orasida eng yaxshisidir.

Qisqacha qilib aytganda Python quyidagi sohalarda faol ishlatiladi:

1. Tizimli dasturlash.
2. Grafik interfeysli dasturlarni ishlab chiqish.
3. Dinamik web-saytlarni yaratish.
4. Komponentlarning integratsiyasi.
5. Ma'lumotlar bazalari bilan ishlash uchun dasturlarni ishlab chiqish.
6. Prototiplarni tezkor yaratish.
7. Ilmiy hisoblash uchun dasturlarni ishlab chiqish.
8. O'yin dasturlar yaratish

Python dasturlarini ishga tushirish uchun nima qilishimiz kerak? Ushbu savolga javob berishdan oldin, dasturlarning kompyuterda qanday ishlashini ko'rib chiqamiz. Dasturlarning bajarilishi operatsion tizim tomonidan amalga oshiriladi (Windows, Linux va boshqalar). Operatsion tizimning vazifalari dastur uchun resurslarni taqsimlash, kiritish/chiqarish qurilmalariga kirishni taqiqlash yoki ruxsat berishdan iborat.

Python dasturlarini ishga tushirish uchun sizga Python tarjimoni (virtual mashina) kerak bo'ladi. Ushbu dastur Python dasturchisidan operatsion tizimning barcha xususiyatlarini yashiradi, shuning uchun Windows tizimida Python-da dastur yozib, siz uni, masalan, GNU / Linux-da ishlatishingiz va bir xil natijaga erishishingiz mumkin.

1.3. Python dasturlash tilini o`rnatish.

Agar siz biror GNU/Linux distributivini ishlatayotgan bo'lsangiz ko'p xollarda sizning tizimingizda **python** o'rnatilgan bo'ladi. Buni tekshirib ko'rish uchun terminalingizdan quyidagi buyruqni ishga tushirib ko'ring. **python -V**

Agar sizda **Python 3.4.3** yozuvi yoki shunga o'xshash yozuv hosil bo'lsa unda hammasi joyida.

Windows operatsion tizimiga o'rnatish uchun www.python.org/downloads web sahifasiga o'tamiz va u yerdan oxirgi python versiyasini yuklab olamiz. Pythonni o'rnatish odatiy dasturlarni o'rnatish kabi kechadi. Hech qanday qiyin joyi yo'q.



1.1.1-chizma. Python dasturining o`rnatiluvchi fayli.

Python dasturlash tilining o`rnatuvchi paketini ustiga sichqoncha ko`ratkichini 2 marta bosamiz va bizga quyidagi oyna hosil bo`ladi.



1.1.2-chizma. Python dasturini o`rnatishni boshlashni ko`rsatuvchi oyna.

Bu yerda **Install for all users**-barcha foydalanuvchilar uchun. **Install just for me**- faqat siz uchun, agar buni tanlab istalyatsiya qilsak ya'ni o`rnatsak Windows Vista operatsion sistemasida xatolik yuz beradi va dastur ishlamaydi. Shuning uchun **Install for all users** ni tanlaganimiz maqul. Keyin next tugmasi bosamiz.



1.1.3-chizma. Python dasturini o`rnatilish joyini ko`rsatish oynasi.

Bu yerda esa Python dasturlash tilini qayerda o`rnatilishi ko`rsatilayapti.



1.1.4-chizma. Python dasturini o`rnatilish jarayoni.

Python o`rnatilyapti va bir necha sekunddan so`ng quyidagi oyna namoyon bo`ladi:



1.1.5-chizma. PIP kutubxonasini qo`shish jarayonida hosil boladigan oyna.

Bunda Console rejimida dastur ishga tushib **pip** kutubxonasini qo`shadi.

1.1.6-chizma. Python dasturini o`rnatish tugallanganligi haqidagi muloqot oynasi.

Va dasturni o`rnatish muofaqqiyatli tugallandi.

1.4. Dastur tuzilishi

Pythonda har bir instursiya alohida satraga yoziladi. Ko’pgina dasturlash tillari (masalan, PHP, Perl va boshqa)da har bir instruksiya nuqtali vergul bilan yakunlanadi. Pythonda ham instruksiya ohiriga nuqtlil vergul qo’yish mumkin, biroq majburiy emas.

Har bir satr boshidagi bo`sh joy(отступ) muhim ahamiyatga ega. Kiritilgan amallar bo`sh joylarning kattaligiga qarab **blok**larga birlashadi. Bo`sh joy istalgancha bo`lishi mumkin asosiysi bitta kiritilgan blok chegarasida bo`sh joy bir xil bo`lishi

kerak. Noto`g`ri qo`yilgan bo`sh joylar xatolik yuz berishiga olib kelishi mumkin. Bitta probel bilan bo`sh joy hosil qilish yaxshi qaror emas uni o`rniga to`rtta probel yoki *Tab* belgisini ishlatish kerak.

Pythonga kiritilgan amallar bir xil shablonda yoziladi. Bunda asosiy amal ikki nuqta bilan tugatiladi va uning orqasidan kiritilgan blok kodi ham joylashadi. Odatda, asosiy amalning ostidagi satr bo`sh joy bilan ajratiladi.

Pythonda nuqtali vergul quyish tavsiya etilmaydi. Satr yakuni instruksiya yakuni hisoblanadi. Shunga qaramay, bir necha instruksiyani bir satrga yozish kerak bo'lsa nuqta verguldan foyadalanish mumkin va quyidagi misolda keltiriladi.

1-misol. Bir nechta instrukisyani bir satrda qo'llash

```
>>> x = 5;  y  =  10;  z  =  x  +  y  #  uch instruksiya bir satrda
>>> print (z)
```

Pythonda dastur yozilishinig yana bir muhim husisiyati shundaki kodlar blokini ajratsih uchun alohiada belgi ishlatilmaydi. Faqat bok tekislanishi bilan ajratiladi.

Masalan, PHPda while sikli tanasi figurali qavs yordamida quyidagicha yoziladi:

```
$i = 1;
while ($ i < 11) {
echo $i.  "\ n" ;
$i ++ ;
}
echo " Dastur tamom ";
```

Python tilida esa boshqacha yoziladi:

```
i = 1
while i < 11:
    print(i)
    i += 1
print("Dastur tamom")
```

Diqqat qiling, blok ichidan tashqari barcha instruksiyalar bir hil joylashgan. Blok tanasi esa alohida probellar satrida joylashgan. Misoliizda ikkita instruksiya o'n marta

bajariladi. Blok yakunlangach yana instruksiya dastlabki probel tekisligiga joylashtiriladi. Bu print("Dastur tamom") instruksiyasidir.

Agar bir blok ichidagi probeller turlicha bo'lsa, xatolik kelib chiqadi. Odatda to'rt probel yoki bitta tabulyatsiya belgisi bilan ajratiladi.

Agar blok bitta instruksiyadan ibotar bo'sa uni asosiy instruksiya bilan bir satrga joylashtirish mumkin. Masalan:

```
for i in range (l, 11) :
print (i)
print ("Dastur tamom" )
```

yuqoridfagi dasturni quyidagicha ham yozish mumkin:

```
for i in range (l, 11) : print (i)
print ("Dastur tamom" )
```

Agar konstruksiya juda uzun bo'lsa quyidagi usullardan birida uni yangi satrga bo'lib yozish mumkin.

- ✓ satr oxiriga "\" belgisini joylashtirish yordamida va undan keingi belgi navbatdagi satrdan yoziladi. Masalan:

Пример:

```
x = 15 + 20 \
  + 30
print (x)
```

- ✓ ifodani aylanma qavslar yordamida yozish. Bu ancha yaxshiroq usul bo'lib, ixtiyoriy ifodani satrlarga joylashtirish mumkin bo'ladi. Masalan:

```
x = (15 + 20 # bu izoh
+ 30)
print (x)
```

- ✓ ro'yxat va lug'atlarni aniqlashda ularni bir nechta satrga yozish mumkin. Bunda mos ravishda kvadrat va aylama qavslardan foydalaniladi. Ro'yxatni aniqlashga doir misol:

```
arr = [15, 20, # bu izoh
       30]
```

```
print (arr)
```

Lug’atni aniqlashga doir misol:

Пример определения словаря:

```
arr  =  {" x" :  15,  "y":  20,   # bu izoh
          "z" :  30 }
print (arr)
```

1.5. Izohlar

Izohlar dastur matnini tushintirish uchun foydalaniladi va dasturni izohlaydi. Izohlar ihtiyoriy matn, ko’rsatalardan iborat bo’lishi mumkin va ular bajarilmaydi. Ular dastur kodini o'qiyotganlar uchun foydali bo'ladi va dastur nima qilishini oson tushunishga yordam beradi. Izohlarga yechimdagi muhim joylarni, muhim bo'lgan qismlarni yozish mumkin. Pythonda bir satrli izoh ishlatiladi va u # belgisidan boshlanadi. Masalan: *# bu izoh*

```
# print — bu funksiya
print ('salom dunyo! ')
```

bir satrli izoh satr boshidan balki instruksiyaning ihtiyoriy joyidan boshlanishi mumkin va unadan keying belgilar izoh sifatida qabul qilinadi. Maslan:

```
print ('salom dunyo!')   #  print — bu funksiya
```

Agar # belgisi aylanma qavs yoki apastrof ichida joylashgan bo’lsa, u izoh belgisi hisoblanmaydi:

```
print ("# Bu izoh emas")
```

Python da ko’p satrli izohlar mavjud bo’lmagani uchun, bazan ko’p satrli izohlar uchtalik qo’shtirnoq (yoki uchtalik apostrof) orqali berilishi mumkin:

```
"""
Bu instruksiya bajarilmaydi
Faqat izoh sifatida foydalanish mumkin
print ("Bu ham izohning uchinchi satri!")
"""
```

Yuqoridagi satrlar bajarilmaydi ular faqat dasturda o’qish uchun holos.

1.6. Dastur natijasini chop etish

Dastur natijasini ekranga chiqarish uchun *print()* funksiyasidan foydalaniladi. Funksiya quyidagi formatda beriladi:

print ([<Obyektlar>] [, sep= ' '] [, end=' \n'] [, file=sys.stdout] [, flush=False])

print() funksiyasi obyektni satrga o'tkazadi va uni stdout standart chiqarishga uzatadi. *file* parametri yordamida chiqarish boshqa joyga masalan, faylga yo'naltirilishi mumkin. Bunda *flush* paramtri qiymati False bo'lsa chiqariladigan qiymat faylga yozilishi majburiy bo'ladi. Chop etishlarni yo'naltirish bo'yicha fayllar mavzusida batafsil tanishib chiqamiz.

Satr chop etilgach avtomatik satr keying satrga o'tkaziladi:

```
print ("1-satr")
print ("2-satr ")
```

Natija:

```
1-satr
2-satr
```

Agar bir nechta qiymatni bitta satrda chiqarish zarur bo'lsa, qiymatlar vergul yordamida print() funksiyasidagi birinchi parametrda beriladi:

```
print ("1-satr", "2-satr")
```

Natija:

```
1-satr 2-satr
```

Misoldan ko'rinib turganidek, chop etiladigan satrlar orasiga avtomati probel qo'yiladi. **sep** parametri yordamida boshqa belgini ajratgich sifatifda ko'rsatish mumkin.

Masalan satrlar probelsiz chiqishi uchun quyidagicha yoziladi:

```
print ("1-satr","2-satr", sep="")
```

Natija:

```
1-satr2-satr
```

Obyektni chiqargandan keyin ohirida keying satrga o'tish belgisi qo'shiladi. Agar keying chiqariladigan satr oldingisi bilan bir satrga joylashishi zarur bo'lsa end

parametrida quyidagicha probel belgisi ko’rsatiladi:

```
print ("1-satr", "2-satr", end=" ")
print ("3-satr)
```

Natija:

1-satr 2-satr 3-satr

Agar aksincha bolishini ya’ni keying chop etish natijasi yangi satrdan chiqishini hohlasangiz *print*() funksiyasida end parametrini ko’rsatmang. Masalan:

```
for n in range (l, 5):
print (n, end=" ")
print()
print ("Bu matn yangi satrda chop etiladi")
```

Natija quyidagicha chop etiladi:

1 2 3 4

Bu matn yangi satrda chop etiladi

Bu yerda biz for siklidan foydalanib sonlar ketma ketlini chop etdik. Sikldan keyingi print() operatori navbatdagi print ("Bu matn yangi satrda chop etiladi") operatorida chop etiladigan satrni yangi satrdan chop etish uchun parametrsiz shaklda yozildi.

1.7. Ma’lumotlarni kiritish

Python 3 da ma’lumotlarni kiritish uchun stdin standartidan ma’lumot oluvchi input () funksiyasi dan foydalaniladi. Funksiya quyidagi umumiy ko’rinishga ega:

[<Qiymat> =] input ([<habar>])

Misol sifatida foydalanuvhci bilan salomlashish dasturini ko’rib chiqamiz.

2-misol:

```
# -*- coding: utf-8 -*-
name = input("Ismingizni kiriting: ")
print("Salom,", name)
input("Dasturdan chiqish uchin <Enter> tugmasini bosing")
```

Dastur natijasi:

```
==== RESTART: C:/Users/user/AppData/Local/Programs/Python/Python37/14.py ====
Ismingizni kiriting: Umidjon
Salom, Umidjon
Oynani yopish uchun <Enter> tugmasini bosing
```

Muhokama uchun savollar va topshiriqlar

1. Python qanday til?
2. Python yaratuvchilarini bilasizmi?
3. Python qanday imkoniyatlarni taqdim etadi?
4. Python muharrirlarni bilasizmi?
5. Python qanday o’rnatiladi?
6. Pythonda operatorlar qanday ajratiladi?
7. Pythonda blok qanday beriladi?
8. Python shell muhiti vazivasi nima?
9. Pythonda izohlar qanday beriladi?
10. Pythonda dastur chop etish operatori?
11. Pythonda ma’lumot kiritish operatori.

2-BOB. O’ZGARUVCHILAR

O`quv modullari

Python, o’zgaruvchi, obyektlar, dinamik tiplashtirish, Turlar, Instruksiya, Interpretator kodlar

Biror ma'lumotni saqlash va uning ustida turli amallarni bajarish uchun bizga o'zgaruvchilar yordam beradi. O'zgaruvchining qiymati, o'z nomi bilan aytib turibdiki, o'zgarishi mumkin. Unda xohlagan qiymatni saqlash mumkin. O'zgaruvchilar kompyuter xotirasidagi joy bo'lib, u yerda siz biror ma'lumotni saqlaysiz. O'zgaruvchining konstantadan farqi, o'zgaruvchiga dastur ishlashi davomida (run time) murojaat qilib, uning qiymatini o'zgartira olamiz. Konstantaga esa oldindan ma'lum bir qiymat beriladi va bu qiymatni o'zgartirib bo'lmaydi.

Python dasturlash tilida barcha ma’lumotlar obyektlar sifatida beriladi. Har bir obyekt ma’lumot tipiga va qiymatiga ega. Obyektga ruxsat o’zgaruvchi orqali aniqlashtiriladi. O’zgaruvchi insalizasiyasida obyekt (kompyuter xotirasidagi obyekt manzili) ga havola saqlanadi. Keyinchalik shu havola sababli dasturdan obyektni o’zgartirish mumkin bo’ladi.

2.1. O’zgaruvchini nomlash

Har bir o’zgaruvchi lotin alifbosi, raqamlar, ostga chizish belgisidan iborat bo’lgan va raqmdan boshlanamaydigan unikal nomga ega bo’lishi kerak. Bundan tashqari o’zgaruvchini nomlashda ostgi chiziqni nom boshida kelishi tavsiya etilmaydi, chunki ko’p bunday nomlangan identifikator tilda maxsus vazifani bajaradi. Ular ustma-ust tushib qolib, dasturda xatolik kelib chiqishi mumkin. Bundan tashqari kalit so’zlardan o’zgaruvchi nomi sifatida foydalanish ta’qiqlanadi.

Qisqa qilib aytganda o'zgaruvchilarni nomlashda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- O'zgaruvchining birinchi belgisi alifbo harfi (ASCII simvollari katta va kichik registrda) yoki “_” (ostki chiziq) simvoli bo'lishi mumkin(lekin odatda tavsiya etilmaydi).

- O'zgaruvchilarning qolgan qismi harflardan (ASCII simvollari katta va kichik registrda), “_" (ostki chiziq) simvoli va raqamlardan(0-9) tashkil topishi mumkin.
- O'zgaruvchilar nomlashda katta va kichik registrlar farqlanadi. Masalan, *myname va myName – bular boshqa-boshqa o'zgaruvchi hisoblanadi.*
- O'zgaruvchilarni to'g'ri nomlashga misollar*: i, _my_name, name_23, a1b2_c3*
- O'zgaruvchilarni noto'g'ri nomlashga misollar: 2things, ' ', my-name, >a1b2_c3 va “o'zgaruvchi qo'shtirnoqda"

Kalit so’zlar

False – yolg`on.

True - rost.

None - “bo`sh” obyekt.

and – mantiqiy VA amali.

with / as – konteks menejeri.

break –tsikldan chiqish.

class – metod va atributlarda iborat.

continue – tsikldan keyingi iteratsiyaga o`tish.

def – funksiyani aniqlash.

del – obyektni yo`qotish.

elif – aks holda, agar.

else – for/else yoki if/elsega qarang.

for – for tsikli.

from – moduldan bir nechta funksiyani import qilish.

if - agar.

import – moduldan import.

is –xotirani bitta joyida 2 ta obyektni jo`natsa bo`ladimi.

lambda –yashirin funksiyani aniqlash.

not –mantiqiy inkor amali.

or –mantiqiy Yoki amali.

while – while tsikli.

2.2. Ma’lumot turlari

Python 3 da obyektlar quydagi turlarda bo’lishi mumkin:

- bool – ma’lumotlar mantiqiy turi. True yoki False (1 yoki 0 ga teng kuchli) qiymatiga ega bo’lihi mumkin:

```
>>> type (True),  type (False)
(< class  'bool'>,  <class  'bool '> )
>>> int (True), int (False)
        (1, 0)
```

- NoneType – None qiymatli obyekt(qiymati yo’qligini anglatadi):

```
>>> type (None)
<class 'NoneType'>
```

Mantiqiy ifodada None qiymati False kabidir:

```
>>> bool (None )
False
```

- int – butun son. Son qiymati chegarasi faqat operativ xotira sig’imiga bog’liq:

```
>>>  type (214 7 48 364 7) ,  type (9 9999999999 9999999999 999 )
(< class  'int'> ,  <class  'int'> )
```

- float – suzuvchi vergulli son:

```
>>>  type( 5.1) ,  type (8 .5e- 3)
(< class 'float '> ,  <class  'float ' >)
```

- complex – kompleks son:

```
>>>  type (2 +2j)
<class 'complex'>
```

- str - Unicode-satr:

```
>>>  type(“Satr”)
<class 'str '>)
```

- bytes – o’zgarmas baytlar ketma-ketligi:

>>> type (bytes (“Satr”, "ut f- 8"))

<class 'bytes ' >)

- bytearray – o’zgaruvchan baytlar ketma-ketligi:

  >>> type (bytearray ("Satr", "utf-8"))

  <class 'bytearray'>)

- list – ro’yxat. list boshqa dasturlash tillaridagi massivlarning analogidir:

  >>> type ([1 , 2, 3])

  <class 'list'>)

- tuple - kortej:

  >>> type ((1, 2, 3)

  <class 'tuple'>)

- range -diapazon:

>>> type (range (l , 10))

<class 'range '>

- dict - lug’at. dict ma’lumot turi bohsqa dasturlash tillariadagi assosiativ massivning analogidir:

>>> type ({" x ": 5, " y": 20})

<class 'dict '>

- set – to’plam (unikal obyektlar to’plami):

>>> type ({"a", "b", "c"})

<class 'set '>

- frozenset – o’zgarmas toplam:

>>> type (frozenset (["a", "b", "c"]))

<class 'frozenset '>

- ellipsis – uch nuqta shakli yoki Ellipsis so’zini anglatadi. ellipsis turi qirqim olish kengaytmasi sifatida ham ishlatiladi:

>>> type (…) , … , ... is Ellipsis

(<class 'ellipsis'> , Ellipsis, True)

>>>class C ():

def __getitem__(self, obj) : return obj

```
>>> c = C()
>>> c[…, 1:5 , 0: 9:1 , 0]
(Ellips is, slice (l, 5, None) , slice (0, 9, 1) , 0)
```

- function - funksiya:

```
>>> def func() : pass
>>> type (func)
<class 'function'>
```

- module - modul:

```
>>> import sys
>>> type (sys )
<class 'module '>
```

- type – ma’lumotar turi va sinfi. Hayron bo’lmang! Pythonda hamma ma’lumotlar hatto ma’lumot turlarining o’zi ham obyekt hisoblanadi!

```
>>> class C: pass
>>> type (C)
<class 'type'>
>>> type (type( "") )
<class 'type '>
```

Asosiy ma’lumot turari o’zgaruvchan va o’zgarmaslarga bo’linadi. O’zgaruvchan turlarga ro’yxatlar, lug’atalar, va bytearray tegishli. Ro’yxat elementini o’zgartirish misoli:

```
>>> arr = [1, 2, 3]
>>> arr[0] = 0 # Ro’yxatning birinchi elementi o’zgaradi
>>> arr
[0, 2, 3]
```

O’zgarmas turlarga sonlar, satrlar, kortejlar, diapazonlar va bytes turlari tegishlidir. Masalan, agar ikkita boshqa satrdan satr olmoqchi bo’lsak konkatenasiya operasiyasiadan foydalanish kerak va yangi obyektga havola o’zgaruvchig ao’zlashtiriladi:

```
>>> str1 = "Gultoji"
```

```
>>> str2 = "xo’roz"
>>> str3 = str1 + str2 # Konkatenasiya
>>> print(str3)
Gultojixo’roz
```

Bundan tashqari, ma’lumotlar turlari izchillikdagi va aks etuvchilarga bo’linadi. Izchillikga satrlar, ro’yxatlar, kortejlart, diapazonlar, byte va bytearray turlari aks etuvchiga lug’at turlari tegishlidir.

Izchillikdagi va aks etuvchi iterasiya mexanizmini qo’llab-quvvatlaydi va _next_ ( ) yoki next ( ) funksiyalari yordamida elementlar bo’yicha yurib chiqishi mumkin. Masalan, ro’yxat elementini chiqarish quyidagicha:

```
>>> arr = [1, 2]
>>> i = iter(arr)
>>> i.__next__()   # __next__() metodi
1
>>> next(i)   # next() funksiyasi
2
```

Agar lug’atdan foydalanilsa, har bir iterasiya kalit qaytaradi:

```
>>> d = {"x": 1, "y": 2}
>>> i = iter(d)
>>> i.__next__() # kalit qaytariladi
'y'
>>> d[i.__next__()] # kalit bo’yicha qiymat qaytaradi
1
```

Amaliyotda bun usullardan keng foydalanilmaydi. Buning o’rniga ko’pincha for sikli operatoridan foydalaniladi. Masalan, ro’;yxat elementlari quyidagicha chop etiladi:

```
>>>  for i in [1, 2]:
print (i)
```

So’zdagi harflarni chop etish misolini ko’ramiz. Misol uchun so’zdagi har bir harfga tire qo’yamiz:

```
>>> for i in "Salom":
print(i + " -", end=" ")
```

Natija:

S-a-l-o-m

Lug’at elementlarini saralash maslasi:

```
>>> d = {"x": 1, " y":  2}
>>> for key in d:
print (d[key])
```

2.3. O’zgaruvchiqa qiymat o’zlashtirish

Python dasturlash tilida *dinamik tiplashtirishdan* foydalaniladi. Bu shuni anglatadiki, o’zgaruvchi o’zlashtirgan qiymatiga qarab interpretator avtomatik ravishda ma’lumotlar turidan biriga ajratadi. O’zgaruvchiga qiymat “=” operatori yordamida o’zlashtiriladi (beriladi). Misollar yordamida ko’ramiz:

```
>>> x  =  7            #  int tipli
>>> y=  7. 8           #  float tipli
>>> sl  =  "Satr "     #  sl  o’zgaruvhcisi “Satr ” qiymatini o’zlashtirdi
>>> s2  =  ' Satr '    #  s2  o’zgaruvhcisi ham “Satr ” qiymatini o’zlashtirdi
>>> b = True                #  b o’zgaruvchisi mantiqiy True qiymatini
```

o’zlashtirdi

Bir satrda birdaniga bir nechta o’zgaruvhciga qiymat o’zlashtirish mumkin:

```
>>> x  =  y  =  10
>>> x,  y
(10, 10 )
```

Qiymat o’zlashtirilgach o’zgaruvchida obyekt emas balki, obyektga havola saqlanadi.

Buni albatta gruhli o’zlashtirishda ham hisobga olinadi. Guruxli o’zlashtiurish son, satr va kortej tiplarida qo’llanilishi mumkin, biroq o’zgaruvchan obyektlarda buni amalga oshirish mumkin emas. Masalan:

```
>>> x  =  y  =  [ 1 ,   2 ]  #  Go’yoki ikkita obyekt yaratildi
```

```
>>> x,  y
([1, 2], [1, 2])
```

Bu misolda biz ikkita elementdan iborat ro'yxat yaratdik hamda x va y o'zgaruvchilarga qiymatini o'zlashtirdik. Endi y o'zgaruvchisi qiymatini o'zgartirib ko'ramiz:

```
>>> y[l]  =  100  #  Ikkinchi elementni o'zgartirdik
>>> x, y
([1,  100] ,  [1,  100 ] )
```

Misoldan ko'rinib turibdiki, y o'zgaruvchisi qiymatining o'zgarishi x o'zgaruvchisi qiymatini o'zgarishiga ham olib kelmoqda. Demak, har ikki o'zgaruchida bitta obyektga havola ko'rsatilmoqda. Agar ikkita obyektni ko'rsatmoqchi bo'lsak guruxli oz'lashtirishdan emas, alohid ao'zlashtirishdan foydalanish kerak:

```
>>>  x  =  [1,  2]
>>>  y  =  [1,  2]
>>>  y[ l]  =  100          #  Ikkinchi element o'zgarmoqda
>>>  x,  y
([1,  2],  [1,  100 ]  )
```

Ikkita o'zgaruvchi bir obyektga havola ko'rsatayorganini tekshirishga **is** operatori imkon beradi.

Agar o'zgaruvchilar bitta obyektga havola ko'rsatayortgan bo'lsa, is operatori True qiymatini qaytaradi:

```
>>> x  =  y  =  [1,  2]      #  bir obyekt

>>> x  is  y
True
>>> x  =  [1,  2]    #  turli obyekt
>>> y  =  [1,  2]    #  turli obyekt
>>> x is y
```

Fa lse

Interpretator kodlar samaradorligini oshirish maqsadida kichik sonlar va uzun bo'lmagan satrlarni keshlashni amalga oshiradi. Agar ikkita o'zgaruvchiga 2 sono o'zlashtirilsa, bu o'zgaruvchilar bitta obyektga havola ko'rsatadi degani. Masalan:

```
>>> x = 2; y = 2; z = 2
>>> x is y, y is z
(True, True)
```

Obyektga ko'rsatilgan havolalar miqdorini aniqlashga sys modulidagi getrefcount () metodi imkon beradi:

```
>>> import sys          # sys modulini ulaymiz
>>> sys.getrefcount (2)
304
```

Qachonki obyektga havolalar soni nol ga teng bo'lib qolsa obyekt operativ xotiradan avtomatik o'chiriladi.

2.4. Ma'lumot tipini aniqlash

Python ixtiyoriy vaqtda o'zgaruvchi turini unda saqlanadigan qiymat ma'lumot turiga mufofiq o'zgartira oladi. Masalan:

```
>>> a = "Satr "   # str turida
>>> a = 7         # Endi shu o'zgaruvchi int turiga o'zgardi
```

O'zgaruvchi qaysi turga havola o'rsatayotganini aniqlashga type(<o'zgaruvchi_nomi>) funksiyasi imkon beradi:

```
>>> type(a)
<class 'int'>
```

O'zgarvchilarda saqlanadigan ma'lumot turlarini quyidagi usiullardan birida tekshish mumkin:

- type () funksiyasi qaytaradigan qiymatni tur nomi bilan taqqoslash:

```
>>> x = 10
>>> if type (x) == int :
```

print ("Bu tur – int")

- isinstance () funksiyasi yordamida turni tekshirish:

```
>>> s = "Satr "
>>> if isinstance (s, str) :
print ("Bu tur str")
```

2.5. Ma’lumot tipini o’zgartirish

Oldingi mavzudan bilamizki, Pythonda *turlar dinamikdir*. O’zgaruvchiga qiymat o’zlashtirilgach unda obyekt emas balki, aniqlagan turdagi obyektga havola saqlanadi. Agar keyin o’zgaruvchiga boshqa turdagi qiymat o’zlashtiriladigan bo’lsa, o’zgaruvchi endi unga mos turdagi boshqa obyektga havola saqlaydi. Pythondagi shu tarzdagi ma’lumot turi bu o’zgaruvchining emas, obyektning tavsifidir. O’zgaruvchi faqat o’zida obyektga havloni saqlaydi.

O’zgaruvchiga qiymat o’zlashtirilgach o’zgaruvchi o’zlashtirilgan qiymat turiga mos amallarni bajarishi mumkin bo’ladi. Masalan, satr o’zgaruvchisiga son o’zgaruvchisini qo’shish mumkin emas va bu quyidagicha xatolik keltirib chiqaradi:

```
>>> 2 + "2511"
Traceback (most recent call last) :
File 11 <pyshe ll #0>11, line 1, in <module>
2 + “25”
TypeError: unsupported operand type (s) for +: 'int' and 'str '
```

Quyidagi funksiyalar ma’lumotlar turii o’zgartirish uchun mo’ljallangan:

- bool([<Obyekt>]) - obyektni mantiqiy turga o’zgartiradi. Masalan :

```
>>> bool(0) , bool (l) , bool (" ") , bool (“Satr”), bool ([ l, 2] ), bool ([ ])
(False, True, False, True, True, False)
```

- int ([<Obyekt> [, <Sanoq sistemasi>]]) – obyektni songa o’zgartiradi. Ikkinchi parameter sifatida sanoq sistemasii ko’rsatish mumkin. (agar ko’rsatilmasa 10 lik sanoq sistemasi deb hisoblanadi). Masalan:

```
>>> int(7. 5), int ("71")
```

(7, 71)

>>> int ("71", 10) , int ("71", 8) , int ("0071", 8) , int ("A" , 16)

(71, 57, 57, 10)

Agar o’tkazishga imkon bo’lmasa, istisni haqida habar beriladi:

>>> int ("7ls")

Traceback (most recent call last) :

File "<pyshell#9>" , line 1, in <module>

int ("71s")

ValueError: invalid literal for int () with base 10: '7ls'

- float ([<Son yoki satr>]) - butu son yoki satrni haqiyqiy (suzuvchi vergulli) songa o’tkazadi. Masalan:

>>> float (7) , float ("7. l")

(7.0, 7.1)

>>> float ("Infinity"), float ("-inf")

(inf, -inf)

>>> float ("Infinity") + float ("-inf")

nan

- str ([<Obyekt>]) - Obyektni satrga o’tkazadi. Masalan:

>>> str (125), str([l, 2, 3])

('125', '[1, 2, 3] ')

>>> str((l , 2, 3)), str ({" x" : 5, "y" : 10 })

(' (1, 2, 3) ', "{ 'y ' : 10, 'x' : 5) ")

>>> str (bytes("satr" , "utf-8 "))

"b'\\xd1\\x81\\xdl\\x82\\xdl\\x80\\xd0\\xbe\\xd0\\xba\\xd0\\xb0'"

>>> str(bytearray("satr", "utf-8 "))

"bytearray (b'\\xdl \\x81\\xdl \\x82\ \xdl \\x80\ \xd0\ \xbe\ \xd0\\xba\\xd0\\xb0 ')"

- str (<Oyekt>[, <Kodirovka>[, <Xatolik tahlili>]]) - bytes yoki bytearray turidagi obyektni satrga o’tkazish. Uchnchi parameter sifatida "strict", "replace " yoki "ignore " lardan birini berish mumkin. Masalan:

>>> objl = bytes ("1-satr", "utf- 8 ")

```
>>> obj2 = bytearray ("2-satr", "utf- 8")
>>> str (objl, "utf- 8") , str (obj2, "utf- 8")
('1-satr', '2-satr ')
>>> str(objl, "ascii ", "strict" )
Traceback (most recent call last):
File "<pyshel l#16>" , line 1, in <module>
str (objl, "ascii ", "strict" )
Uni code DecodeError: 'ascii' codec can 't decode byte
Oxdl in position 0: ordinal not in range (1 28)
>>> str (objl, "ascii", "ignore")
'1'
```

- bytes (<Satr>, <Kodirovka>[, <Xatolik tahlili>]) - satrni bytes tutidagi obyektga o'tkazish. Uchnchi parameter sifatida "strict " (odatiy qiymaat), "replace" yoki "ignore" ni ko'rsatish mumkin.

Masalan:

```
>>> bytes ("satr", "cp1251")
b' \xfl \xf2\xf0 \xee\xea\xe0'
>>> bytes ("satr123", "ascii", "ignore" )
b'123 '
```

Misol sifatida foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ikki soni qo'shish masalasini ko'rib chiqaylik

2.4-misol. Ma'lumot kiritish va natija olish

```
# -*- coding: utf-8 -*-
x = input ("x=")          # 5 ni kiritamiz
y = input ("y=")          # 12 ni kiritamiz
print (x + y)
input ()
```

Ushbu dastur natijasini olsak “512” chiqadi. Chunki input() funksiyasi natija sifatida satri qaytaradi. Agar bu sonlar yig’indisini olishni hoxlasak ularni son turiga o’tkazish kerak (2.5-misol)

2.5-misol. Satrni songa o’tkazish

```
# -*- coding: utf-8 -*-
x = int (input ("x="))          # 5 ni kiritamiz
y = int (input ("y="))          # 12 ni kiritamiz
print (x + y)
input ()
```

Bu dastur natijasi 17 bo’ladi. Biroq foydalanuvchi son o’rniga satr kiritsa, xatolik kelib chiqadi. Bu xatolikni qayta ishlashni biz keyinroq ko’rib chiqamiz.

2.6. O’zgaruvchini o’chirish

O’zgaruvchini del instruksiyasi yordamida o’chirish mumkin:

del <o’zgaruvchi>[, …, <o’zgaruvchi_N>]

Bitta o’zgaruvchini o’chirishga misol:

```
>>> x = 10; x
10
>>> del  x;  x
Traceback (most  recent  call  last) :
Fi le  "<pyshell# l>" ,  line 1,  in  <module>
del x; x
NameError:  name  'x'  is  not  defined
```

Bir nechta o’zgaruvchini o’chirishga doir misol:

```
>>> x,  y = 10,  20
>>> del x,  y
```

Muhokama uchun savollar va topshiriqlar

1. Pythonda oz’garuvchi nima?
2. Pythonda qanday ma’lumot turlari bor?
3. Pythonda o’zlashtirish amali.
4. Pythonda qanday ma’lumot turlari bor?
5. Pythonda ma’lumot turlarini o’zgartirish
6. Pythonda o’zgaruvchini o’chirish.

3-BOB. OPERATORLAR

O`quv modullari

Matematik operatorlar, konketenasiya, ikkilik (bitli) operatorlar, o’zlashtirish operatori, unar minus, unar plyus, inversiya

Operatorlar ma’lumotlar ustida biror amal bajarishga imkon beradi. Masalan, o’zlashtirish operatori o’zgaruvchi qiymatlarini saqlash, matematik operatorlar arifmetik amallar bajarish, konketenasiya operatori satrlarni ulash kabi amalllarni bajarishga hizmat qiladi.

Python 3 dagi operatorlarni batafsil ko’rib chiqamiz.

3.1. Matematik operatorlar

Sonlar ustida amallar bajarish uchun quyidagi operatorlardan foydalaniladi:

- **+** – qo’shish:

```
>>> 10 + 5              # butun son
15
>>> 12 .4 + 5.2   # haqiyqiy son
17.6
>>> 10 + 12 .4          # butun va haqiyqiy sonlar
22 .4
```

- **-** – ayirish:

```
>>> 10 - 5          # butun son
5
>>> 12 .4 - 5.2          # haqiyqiy son
7.2
>>> 12 - 5.2             # butun va haqiyqiy son
6.8
```

- * – ko’paytirish:

```
>>> 10 * 5              # butun son
50
```

```
>>>  12 .4  *  5.2  #  haqiyqiy son
64 .4 8
>>>  10  *  5.2              #  butun va haqiyqiy son
52 .0
```

➢ / – bo’lish. Bo’lish natijasi doimo haqiyqiy son bo’ladi xatto, bo’linma va bo’luvchi butun son bo’lsa ham. Masalan:

```
>>> 10 / 5                    #  bo’linma qoldiqsiz
2.0
>>> 10 / 3                    #  bo’linma qoldiqli
3. 33333333 33333335
>>> 10 .0 / 5.0               #  bo’linuvchi va bo’luvchi haqiyqiy sonlar
2.0
>>> 10.0 / 3.0                #  bo’linuvchi va bo’luvchi haqiyqiy sonlar
3. 3333333333333335
>>>  10 / 5.0                 #  butun son haqiyqiy songa bo’linsa
2.0
>>> 10.0 / 5                  #  haqiyqiy son butun songa bo’linsa
2. 0
```

➢ // – kami bilan yaxlitlanadigan bo’lish. Barcha qoldiq tashlab yuboriladi. Maslan:

```
>>> 10 // 5   # bo’linma qoldiqsiz
2
>>>10 // 3   # bo’linma qoldiqli
3
>>>10.0 // 5.0      # haqiyqiy sonli bo’linma
2.0
>>> 10 .0 // 3.0     # haqiyqiy sonli bo’linma (qoldiqli)
3.0
>>> 10 // 5.0              # butun son haqiyqiy songa bo’linganda (qoldiqsiz)
2.0
```

```
>>>  10 // 3.0        # butun son haqiyqiy songa bo'linganda(qoldiqli)
3.0
>>>  10 .0 // 5       # haqiyqiy son butun songa bo'linganda(qoldiqsiz)
2.0
>>>  10 .0  11  3    # haqiyqiy son butun songa bo'linganda(qoldiqli)
3.0
```

- % - qoldiqli bo'lish (bo'linma qoldiq qismi):

```
>>> 10 % 5                  # butun sonli qoldiqsiz bo'linma
0
>>> 10 % 3           #  butun sonli qoldiqli bo'linma
1
>>> 10.0 % 5.0     #  haqiyqiy sonlar ustida amal
0.0
>>> 10.0 % 3.0     #  haqiyqiy sonlar ustida amal
1.0
>>>  10  %  5.0     #  butun va haqiyqiy sonlar ustida amal
0.0
>>> 10 % 3.0        #  butun va haqiyqiy sonlar ustida amal
1.0
>>>  10.0 % 5       #  haqiyqiy va butun sonlar ustida amal
0.0
>>>  10.0  %  3     #  haqiyqiy va butun sonlar ustida amal
1.0
```

- ** – darajaga ko'tarish:

```
>>>  10**2,  10.0**2
(100,  100.0)
```

- Unar minus (-) va unar plyus (+) :

```
>>>+10,  +10.0,  -10,  -10 .0 ,  -( - 10) ,  -( -10 .0)
(10,  10.0,  -10,  - 10.0,  10, 10 .0)
```

3.2. Ikkilik operatorlar

Pythonda quyidagi ikkilik (bitli) operatorlar ishlatiladi:

- ~ ikkilik inversiya. Har bir bit qarama qarshisiga o'zgaradi:

```
>>> x = 100              #  011 001 00
>>> x= ~x                #  100 110 11
```

- & – ikkilik VA:

```
>>> x  = 100             #  01100100
>>> y  = 75              #  01001011
>>> z  = x & y           # 01000000
>>> "{0 :b } & {l: b}={2:b}".format (x, y , z)
'1100100 & 1001011 = 1000000 '
```

- | – ikkilik YOKI:

```
>>>  x  =  100                  #  01100100
>>>  y  =  75                   #  01001011
>>>  z  =  x | y                #  01101111
>>> "{0:b } | {l: b } = {2: b }".format (x,  y,  z )
'1100100 | 1001011  =  11011 11 '
```

- ^ - ikkilik istisnoli YOKI:

```
>>>  x  =  100           # 01100100
>>>  y  =  250           # 11111010
>>>  z  =  x ^ y         # 10011110
>>>  "{ 0: b} ^{l :b}  =  {2 :b} ".format (x,  y,  z )
'1100100  ^ 11111010  = 1001111 0 '
```

- << – chapga siljitish –ikkilik ko'rinishdagi soni chapgabir yoki bir nechta o'ringa siljitish va o'ng tomonni nol bilan to'ldirish:

```
>>>  x  =  100           #  01100100
>>>  y  =  x  << 1       #  11001000
>>>  z  =  y  << 1       #  10010000
>>>  k  =  z  << 2       #  01000000
```

➢ >> – o’ngga siljitish – ikkilik ko’rinishdagi sonni o’ngga bir yoki bir nechta o’ringa siljitish va agar son musbat bo’lsa, chap tomonni nol bilan to’ldirish:

```
>>> x  =  100              #  01100100
>>> y  =  x >> 1           #  00110010
>>> z  =  y >> 1           #  00011001
>>> k  =  z >>  2          #  00000110
```

Agar son manfiy bo’lsa, chap tomondagi razryadar bir bilan to’ldiriladi:

```
>>> x = -127               # 10000001
>>> y = x  >> 1            #  11000000
>>> z = y  >> 2            #  11110000
>>> k = z  << 1            #  11100000
>>> m = k  >> 1            #  11110000
```

3.3. Sonli ketma-ketliklar bilan ishlash operatorlari

Sonli ketma-ketliklar bilan ishlash operatorlari quyidagicha:

➢ + - konkatenasiya:

```
>>> print ("1-satr"  +  "2-satr")  #  satrlar konkatenasiyasi
1-satr2-satr
>>> [1,  2,  3]  +  [4,  5,  6 )       #  ro’yxatlar
[1,  2,  3,  4,  5,  6]
>>>  (1,  2,  3)  +  ( 4,  5,  6)      #  Kortejlar
(1,  2,  3,  4,  5,  6)
```

➢ * – takrorlash:

```
>>>  "s"  *  20              #  Satr
'sssssssssssssssssss'
>>> [1,  2]* 3              # Ro’yxat
[1, 2, 1, 2, 1, 2]
>>>  (1,  2) * 3             #  Kortej
(1,  2,  1,  2,  1,  2)
```

- in – tegishlilikka tekshirish. Agar element sonli satr tarkibida bo'lsa natija sifatida True ni qaytaradi:

```
>>> "satr" in "Qidirish uchun satr" # Satr
True
>>> "2-satr" in "Qidirish uchun satr" # Satr
False
>>> 2 in [1, 2, 3], 4 in [1, 2, 3] # Ro'yxat
(True , False)
>>> 2 in (1 , 2, 3), 6 in (1, 2, 3) # Kortej
(True , False)
```

- not in – tegishli emaslikka tekshirish. Agar element sonli ketma-ketlik tarkibida bo'lmasa True natija qaytaradi:

```
>>> "satr" not in "Qidirish uchun satr"          # Satr
False
>>> "2-satr" not in "Qidirish uchun satr"        # Satr
True
>>> 2 not in [1, 2, 3], 4 not in [1, 2,]        # Ro'yxat
(False, True )
>>> 2 not in (1, 2, 3), 6 not in (1 , 2, 3)     # Kortej
(False, True)
```

3.4. O'zlashtirish operatorlari

O'zlashtirish operatorlari qiymatlarni o'zgaruvchilarga saqlash uchun foydalaniladi. Pythonda foydalaniladigan o'zlashtirish operatorlarini ko'rib chiqamiz:

= – o'zgaruvhciga qiymat o'zlashtirish:

```
>>> x = 5; x
5
```

- += – o'zgaruvchi qiymatini ko'rsatilgan kattalikka oshirish:

```
>>> x = 5;
>>> x += 10              # x=x+10 ga teng kuchli
>>> x
```

Konkatenasiya amalini o’zlashtirish uchun ham foydalanish mumkin:

```
>>> s = "Ol" ;
>>> s += "mos"
>>> print (s)
Olmos
```

- - = – o’zgaruvchi qiymatini ko’rsatilgan kattalikka kamaytirish:

```
>>> x = 10; x - = 5   # x = x - 5 ga teng kuchli
>>> x
5
```

- * = – o’zgaruvchi qiymatini ko’rsatilgan kattalikka ko’paytirish:

```
>>> x = 10; x * = 5   # x = x * 5 ga teng kuchli
>>> x
50
```

Sonli ketma ketliklar uchun ham * = amali qo’llaniladi:

```
>>> s = "* "; s * = 20
>>> s
' ********************* '
```

- / = – o’zgaruvchi qiymatini ko’rsatilgan kattalikka bo'lish:

```
>>> x = 10 ; x /= 3            # x = x / 3 ga teng kuchli
>>> x
3. 3333333333333335
>>> y = 10 .0 ; y /= 3.0              # y = y / 3.0 ga teng kuchli
>>> y
3. 3333333333333335
```

- / /= – o’zgaruvchi qiymatini ko’rsatilgan songa bo’linadi, kami bo’yicha yaxlitlanadi va o’zlashtiriladi:

```
>>> x = 10; x //= 3   # x = x // 3 ga teng kuchli
>>> x
3
```

```
>>> y= 10 .0 ;  y //=  3.0          #  y=  y  //  3.0 ga teng kuchli
>>>  y
3.0
```

➢ % = – o’zgaruvchi qiymatini ko’rsatilag songa bo’ladi va qoldiq qismi o’zlashtiriladi:

```
>>>  x  =  10;  x  %=  2          #  x  =  x  %  2  ga teng kuchli
>>>  x
0
>>>  y  =  10;  y  %=  3          #  y  =  y  %  3 ga teng kuchli
>>>  y
1
```

➢ ** = – o’zgaruvchi qiymatini ko’rsatilgan darajaga ko’taradi va o’zlashtiriladi:

```
>>>  x  =  10 ;  x  * * =  2                #  x  =  x  * *  2 ga teng kuchli
>>>  x
100
```

3.5. Operatorlarni bajarishda ustuvorlik

Operatorlar bajarilish ustuvorligini kamayish tartibida yozamiz:

1. -x, +x, -x, ** – unar minus, unar plyus, ikkilik inversiya, darajaga ko’tarish. Agar unar operator * * operatoridan chapda joylashgan bo’lsa, darajaga ko’tarish katta ustuvorlikka ega, agar o’ngda joylashgan bo’lsa, kichik ustuvorlikka ega. Maslan:

- 10 * * -2 ifodasi quyidagi qavsli ifodaga teng kuchli:

- (10 ** (-2))

2. *, %, /, // – ko’paytirish(takrorlash), qoldiqli bo’lish, bo’lish, kami bo’yicha yaxlitlab bo’lish.

3. +, - – qo’shish (konkatenasiya), ayirish.

4. <<, >> – ikkilik siljitish.

5. & – ikkilik VA.

6. ^ – ikkilik istisnoli YOKI.

7. | – ikkilik YOKI.

8. =, +=, -=, *=, /=, //=, %=, ** = – o’zlashtirish

Eslatib o’tamiz! Qavslar yordamida ifoda hisoblanishdagi ustuvorlik tartibini o’zgartirish mumkin.

Muhokama uchun savollar va topshiriqlar

1. Pythonda operatorlar?
2. Pythonda matyematik operatorlar
3. Pythonda munosabat operatorlari.
4. Pythonda ketma-ketliklar bilan ishlash operatorlari.
5. Pythonda o’zlashtirish operatorlari.
6. Pythonda operatorlarni bajarish ketma-ketligi.

4-BOB. SHARTLI OPERATORLAR

O`quv modullari

Python, shartli opearatorlar, mantiqiy ifoda, taqqoslash, mantiqiy qiymat, interpretator.

Shartli opearatorlar tegishli mantiqiy ifodaning qiymatiga ko'ra dasturning alohida bir qismini bajarilish yoki bajarilmasligini ta'minlaydi. Mantiqiy ifoda faqat ikkita qiymat qabul qiladi: *true* (rost) yoki *false* (yolg'on), hisoblashda 1 yoki 0 sifatida qabul qilinadi.

```
>>> True + 2            # 1 + 2 ga teng kuchli
3
>>> False + 2      # 0 + 2 ga teng kuchli
2
```

Mantiqiy qiymat yoki ifodani o'zgaruvchida saqlash mumkin:

```
>>> x = True ; y = False
>>> x, y
(True , False )
```

Ixtiyoriy obyekt mantiqiy kontekstda rost (true) yoki yolg'on(False) shaklida interpretatsiya qilinadi. Mantiqiy qiymatni aniqlah uchun bool() funksiyasidan foydalanish mumkin. Quyidagi obyektlar True qiymatni qaytaradi:

- Nolga teng bo'lmagan ixtiyoriy son:

```
>>> bool (l), boo1 (20) , bool (- 20)
(True , True , True )
>>> bool (l.0), bool(0.1), bool (-20.0)
(True, True, True )
```

- Bo'sh bo'lmagan obyekt:

```
>>> bool ("0") , bool ([0, None] ), bool( (None, ) ), bool ({"x": 5})
(True, True, True, True)
```

Quyidagi obyektlar False kabi interpretasiyalanadi:

- Nolga teng son :

```
>>>  bool (0) ,  bool (0.0)
(False,  False)
```

- Bo’sh obyekt:

```
>>> bool (" "),  bool ([ ]),  bool (( ))
(False,  False ,  False )
```

- None qiymati:

```
>>> bool (None )
False
```

4.1. Taqqoslash operatorlari

Taqqoslash operatorlaridan mantiqiy ifodalarda foydalaniladi. Ularni sanab o’tamiz:

- = = – teng:

```
>>>  1 = = 1,  1 = = 5
(True ,  False)
```

- ! = - teng emas:

```
>>>  1  ! =  5,    1 ! = 1
(True ,  False )
```

- < – kichik :

```
>>>  1  <  5,  1  <  0
(True ,  False)
```

- > – katta :

```
>>> 1 >  0,  1 > 5
(True ,  False )
```

- <= - kichik yoki teng:

```
>>>  1 <= 5,   1 <= 0,   1  <=  1
(True ,  False,  True )
```

- >= - katta yoki teng:

```
>>>  1  >=  0,  1 >=  5,  1  >=  1
(True ,  False,  True )
```

- in – sonli ketma-ketlikka tegishlilikni tekshirish:

```
>>> "satr" in "qidirish uchun satr" # Satr
True
>>> 2 in [1 , 2, 3) , 4 in [1, 2, 3] # Ro'yxat
(True , False)
>>> 2 in (1, 2, 3) ' 4 in (1, 2, 3) # Kortejlar
(True , False )
```

in operatoridan shuningdek, lug'at kalitiga tegishlilikni tekshirishda ham foydalaniladi:

```
>>> "x" in {" x" : 1, "y" : 2}, "z" in {" x" : 1, "y" : 2}
(True , False )
```

- not in - sonli ketma-ketlikka tegishli emaslikni tekshirish:

```
>>> "satr" not in "qidirish uchun satr" # Satr
False
>>> 2 not in [1, 2, 3] , 4 not in [1, 2, 3]      # Ro'yxat
(False, True)
>>> 2 not in (1 , 2, 3) , 4 not in (1 , 2 , 3) # Kortej
(False , True )
```

- is – ikkita o'zgaruchi bir obyektga havola qilinganini tekshiradi. Agar o'zgaruvchilar bior obyektga havola qilingan bo'lsa, is operatori True qiymat qaytaradi:

```
>>> x = y = [1, 2)
>>> x is y
True
>>> x = [1, 2] ; y= [1, 2)
>>> x is y
False
```

Sonlar va uzun bo'lmagan satrlar bilan ishlashda interpretator samaradorligini oshirish uchun keshlashdan foydalanishi seziladi. Turli o'zgaruvchilarda saqlanadigan

ikkita bir xil qiymat bitta obyektda saqlanishini va o’zgaruvchilarda bir obyektga havola saqlanishini anglatadi. Masalan:

```
>>> x = 2; y = 2; z = 2
>>> x is y, y is z
(True , True )
```

- is not – ikki o’zgaruvchi turli obyektlarga havola qilinishini tekshiradi.

Agar shunday bo’lsa, True qiymat qaytaradi:

```
>>> x = y = [1, 2 ]
>>> x is not y
False
>>> x = [1 , 2] ; y= [1, 2)
>>> x is not y
True
```

Mantiqiy ifoda not operatori yordamida invertirlanadi (teskari qiymatga o’giriladi):

```
>>> x = 1; y = 1
>>> x = y
True
>>> not (x == y) , not x == y
(False , False )
```

Agar x va y o’zgaruvchilar teng bo’lsa True qiymat qaytariladi, not operatori qo’llanilgach esa ifoda False qaytaradi. Aylanama qavslarni qo’yish shart emas.

Mantiqiy ifodada birdaniga bir nechta shartni ko’rsatish mumkin:

```
>>> x = 10
>>> 1 < x < 20, 11 < x < 20
(True, False )
```

Bir nechta mantiqiy ifodalar bitta katta mantiqiy ifodaga quyidagilar operatorlar yordamida birlashtirilishi mumkin:

- and – mantiqiy VA. Agar x and y ifodadagi x False bo’lsa x ni, aks holda y qaytaradi:

```
>>> 1 < 5 and 2 < 5          # True and True == True
True
>>> 1 < 5 and 2 > 5          # True and False == False
False
>>> 1 > 5 and 2 < 5          # False and True == False
False
>>> 10 and 20 , 0 and 20, 10 and 0
( 20, 0, 0)
```

➢ or – mantiqiy YOKI. Agar x or y ifodada x False bo'lsa, y ni qolgan hollarda x ni qaytaradi:

```
>>> 1 < 5 or 2 < 5           # True or True == True
True
>>> 1 < 5 or 2 > 5                  # True or False == True
True
>>> 1 > 5 or 2 < 5           # False or True == True
True
>>> 1 > 5 or 2 > 5            # False or False == False
False
>>> 10 or 20, O or 20, 10 or o
(1 0, 20, 10)
>>> 0 or "" or None or [] or "s"
's'
```

Taqqoslash operatorlarni ustuvorligini kamayish tartibida sanaymiz:

1. <, >, <=, >=, =, ! =, <>, is, is not, in, not in.
2. not – mantiqiy inkor.
3. and – Mantiqiy VA.
4. or – mantiqiy YOKI.

4.2. if...else tarmoqlanish operatori

if...else tarmoqlanish operatori mantiqiy ifoda natijasi bog'liq holda dastur qismining bajarilishi yoki bajarilmasligini ta'minlaydi. Operator umumiy holda quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

if <mantiqiy ifoda>:

<agar mantiqiy ifoda rost qiymat qabul qilsa bajariladigan operatorlar to'plami>

[elif <mantiqiy ifoda>:

<agar mantiqiy ifoda rost qiymat qabul qilsa bajariladigan operatorlar to'plami>

]

[else:

<agar mantiqiy ifoda yolg'on qiymat qabul qilsa bajariladigan operatorlar to'plami>]

Kodlar blokini yozishda probellar ahamiyatini unutmaslik kerak. Quyidagi misolni ko'rib chiqamiz:

4.1-misol. Sonni juftlikka tekshirish

```
#  -*- coding :  ut f-8  - *-
x  =  int(input("Sonni kiriting:"))
if x % 2 == 0:
print (x, " – juft son")
else:
print (x, "  - toq son")
input ()
```

Agar blok bitta insturuksiyadan iborat bo'lsa, uni bir satrga yozish mumkin:

```
# -*-coding:utf-8-* -
x  = int(input("Sonni kiriting: ") )
if x%2 == 0: print (x , " – Juft son" )
else: print (x, " – Toq son ")
input ( )
```

Bu holda satr ohiri instruksiya ohiri hisoblanadi. Blok ichida bir nechta operator bo’lsa ularni bir satrga nuqtali vergul bilan ajratib yozish mumkin:

```
- * - coding:  utf-8 - * -
x = int(input ("Sonni kiriting:"))
if x%2 == 0: print(x , end=" " ) ; print (" – juft son" )
- istitle ( ) - agar satrdagi barcha so'zlasgh bosh harfdan boshlansa True, aks holda False qaytaradi. Agar satr bo'sh bo'lsa ham False qaytariladi. Masalan:

```
>>>  "Str Str".istitle(), "Satr Satr" .istitle ()
(True ,  True )
>>> "Str Str 123" . istitle() ,  "Satr Satr 123" . istitle ()
(True, True )
>>> "Str  str" . istitle() ,  "Satr Satr" .istitle ()
(False, False )
>>> "".istitle(),  "123".istitle ()
(False, False)
```

- isprintable() – agar satr faqat chop etiluvchi belgilardan iborat bo’lsa True, aks holda False qaytaradi. Qayd etish kerakki, probel chop etiluvchi belgilarga tegishli.

Misollar:

```
>>> "123".  isprintable()
True
>>> "PHP  Python".isprintable()
True
>>> "\n".isprintable ()
False
```

- isspace () – agar satr faqat probelli belgilardan iborat bo’lsa True, aks holda False qaytaradi:

```
>>> "".isspace (), "\n\r\t".isspace(),  "str  str".isspace()
(False ,  True ,  False )
```

- isidentifier () – agar satr Pythonda o’zgaruvchi nomi siftida qo’llanilishi mumkin bo’lsa True, aks holda False qaytaradi:

```
>>> "s".isidentifier()
True
>>> "func". isidentifier()
True
>>> "123func".isidentifier()
False
```

isidentifier() metodi faqat til qoidasiga ko’ra nom sifatida qo’llash mumkinligini tekshiradi, U Python dagi kalit so’zlarga mosligini tekshirmaydi.

Buni aniqlash uchun keyword modulini e’lon qilish va iskeyword () funksiyasidan foydalanish kerak. U satrni kalit so’zlardan biriga mosligini tekshiaradi, tegishli bo’lsa True, aks holda False qaytaradi:

```
>>> keyword.iskeyword ("else" )
True
>>> keyword.iskeyword ("elsewhere" )
False
```

7.4-misol. Noma’lum miqdordagi sonlar yig’indisini aniqlash

```
#-*-coding:utf-8-*-
print("Natija olish uchun 'stop'  so’zini kiriting")
summa=0
while True:
  x = input("Sonni kiriting:")
  if x=="stop":
    break      # sikldan chiqish
  if x=="":
    print("Siz qiymat kiritmadingiz!")
    continue
  if x[0]== "-": # agar birinchgu belgi minus bo’lsa
    if not x[1:].isdigit(): # agar satrda raqmdan boshqa belgi qatnashsa
      print("Son kiritish kerak, satr emas!")
      continue
  else: #Agar minus bo’lmasa, to’liq satr tekshiriladi
      if not x.isdigit(): #  agar satrda raqmdan boshqa belgi qatnashsa
        print("Son kiritish kerak, satr emas!")
        continue
  x=int(x)            # satrni songa o’tkazamiz
  summa+=x
print ("Sonlar yig’indisi: ",  summa)
input()
```

```
Natija olish uchun 'stop'  so’zini kiriting
Sonni kiriting:5
Sonni kiriting:7
Sonni kiriting:8
Sonni kiriting:15
Sonni kiriting:25
Sonni kiriting:stop
```

Sonlar yig’indisi: 60

7.12. Bytes ma’lumot turi

str ma’lumot turi matnli ma’lumotni saqlash uchun juda yaxshi qo’l keladi. Biroq tasvirni qayta ishlash uchun nima qilish kerak?

Tasvir kodirovkadan iboprat emas, demak u Unicode satr sifatida akslanmaydi. Pythonda bu muammoni yechish uchun 0 dan 255 gacha butun sonlar ketma-ketligini saqlash imkonini beruvchi bytes va bytearray turlari kiritilgan. Har bir bunday son belgi kodini aniqlaydi. bytes ma’lumot turi satr singari o’zgarmas va ro’yxat kabiu o’zgaruvhcan bytearray turlarga ajratiladi.

bytes obyekt turini quyidagi usullardan birida yaratish mumkin:

- bytes ([<Satr>, <Kodirovka>[, <Xatoliklarni qayta ishlash>]]) funksiyais yordamida. Agar parametr ko’rsatilmasa, bo’sh obyekt qaytariladi. Satrni bytes turiga o’tkazish uchun kamida ikkita birinchi parametr berilishi zarur. Agar satr faqat birinchi parametr ko’rsatilsa xatolik yuz beradi. Masalan:

```
>>> bytes ()
b' '
>>>bytes("satr", "cp1251")
b' \xfl\xf2\xf0\xee\xea\xe0 '
>>> bytes("satr")
Traceback (most recent call last):
  File "<pyshell#51>", line 1, in <module>
    bytes("satr")
TypeError: string argument without an encoding
```

- apostraf, qo’shtirnoq, uch qo’shtirnoq yoki uch apastorf da satr oldidan b harfini ko’rsatish yordamida(registr ahamiyatsiz). Diqqat qiling, satr faqat ASCII kodirovkasida bo’lishi kerak. Boshqa hamma belgilar maxsus ketma-ketlikni tashkil etishi kerak:

```
>>>  b" string",  b' str ing ' ,  b" ""string" "" ,  b' " string ' ' '
(b 'string',  b'string' ,  b'string',  b'string')
>>>  b"қатор "
```

SyntaxError: bytes can only contain ASC II literal characters .

>>> b"\xfl\xf2\xf0\xee\xea \xe0"

b' \xfl\xf2\xf0 \xee\xea\xe0 '

- bytes turidagi bytes 0 dan 255 gacha butun sonlar ketma-ketligi orqali beriladigan bytes (<Ketma-ketlik>) funksiyasi yordamida. Agar sonlar diapazonga tegishli bo'lmasa valueError istisnosi paydo bo'ladi. Masalan:

>>> b = bytes ([225, 226, 224, 174, 170,160])

>>> b

b'\xel\xe2\xe0\xae\xaa\xa0'

7.13. Bytearray ma'lumot turi

bytearray ma'lumot turi bytes turning bir ko'rinishi hisoblanadi va undagi barcha metod va amallarni qo'llaydi. bytes turidan farqi bytearray turi obyektlarni o'zgartirishga yo'l qo'yib beradi.

7.14. Obyektlarni baytlar ketma-ketligiga o'tkazish

Obyektni baytlar ketma-ketligiga va yana obyektga o'tkazish uchun pickle moduli imkon beradi. Bu modulni quyidagicha biriktirib olish kerak:

import pickle

O'zgartirish uchun quyidagi ikkita funksiya ishlatiladi:

- **dumps (<Obyekt>(, <Protokol>] [, fix_imports=True])** - obyektni serializatsiya qiladi va maxsus formatdagi baytlar ketma-ketligini qaytaradi. Format ko'rsatilgan protokolga bog'liq: 0 dan 4 gacha;

Ro'yxat va kortejini o'zgartirish misolini:

>>> import pickle

>>> objl = (1, 2, 3, 4, 5] # Ro'yxat

>>> obj2 = (6 , 7, 8, 9, 10) # Kortej

>>> pickle.dumps (objl)

b' \x80\x03]q\x00 (K\x0 1K\x02 K\x03K\x0 4K\x05e.'

>>> pickle.dumps(obj2)

b'\x80\x03(K\x0 6K\x0 7K\x0 8K\ tK\ntq\x00.'

➢ **loads (<Baytlar ketma-ketligi>[, fix_imports=True] [, encoding="ASC II") [, errors="strict"])** - maxsus formatdagi baytlar ketma-ketligini obyektga qayta o'tkazadi. Ro'yxat va kortejni tiklash misolini ko'ramiz:

```
>>> pickle.loads (b'\x80\x03]q\x00(K\x01K\x02K\x0 3K\x0 4K\x05e.')
[1, 2, 3, 4, 5]
>>> pickle.loads (b' \x80\x03(K\x06K\x07K\x08K\tK\ntq\x00.')
(6, 7, 8,  9,  10)
```

7.15. Satrlarni shifrlash

Satrlarni shifrlash uchun hashlib modulidan foyfdalaniladi. Ushbu modul funksiyalaridan foydalanishdan oldin quyidagicha modulni bog'lab olish kerak:

```
import hashlib
```

Modul quyidagi funksiyalardan foydalanishni taqdim etadi: md5(), sha1(), sha224(), sha256(), sha384() va sha512(). Masalan:

```
>>> import hashlib
>>> h = hashlib.sha1(b"password" )
```

update() metodi yordamida baytlar ketma-ketligiga o'tkaziladi. Bu holda obyekt oldingi qiymatlari bilan bog'lanadi:

```
>>> h = hashlib.shal()
>>> h.update (b"password" )
```

Muhokama uchun savollar va topshiriqlar

1. Pythonda satrlar va ular ustida amallar.
2. Pythonda satr yaratish.
3. Pythonda maxusu belgilar.
4. Pythonda satrlar bilan ishlash amallari.
5. Pythonda satrlarni formatlash.
6. Pythonda format() metodi.
7. Pythonda satrlar bilan ishlash metod va funksiyalari.

8. Pythonda localni sozlash.
9. Pythonda belgila registrini o'zgartirish.
10. Pythonda belgilar bilan ishlash funksiyalari

8-BOB. MUNTAZAM IFODALAR

O`quv modullari

Muntazam ifoda, compile, modifikator, yangi qator belgisi, “nuqta” metasimvollari.

Muntazam ifoda satrdagi murakkab qidirish yoki almashtirishga imkon beradi. Python tilida muntazam ifodadan foydalanish uchun re modulidan foydalaniladi. Modul funksiyalaridan foydalanishdan oldin quyidagi ko’rsatma bo’yicha biriktiriladi:

import re

8.1. Muntazam ifoda sintaksisi

Muntazam ifodadan foydalanishga compile() funksiyasi shabloni imkon beradi. Funksiya quyidagi formatga ega:

<Shablon> = re.compile (< Muntazam ifoda> [, <Modifikator>])

<Modifikator> parametrida quyidagi bayroqlar (yoki ularning kombinasiayalari | operatori bilan beriladi) ko’rsatilishi mumkin:

- L yoki LOCALE – joriy lokalni sozlanmasini hisobga olish;
- r yoki IGNORECASE – registrni hisobga olmay qidirish. Masalan:

```
>>> import re
>>> p = re.compile(r"^[a -яе] +$",  re.I  |  re.U)
>>> print("Topildi" if p.search("АБВГ")  else  "Yo’q")
Topildi
>>> p = re.compile(r"^ [a-яе] +$", re.U)
>>> print ("Topildi" if p.search("АБВГДЕЕ") else "Yo’q" )
Yo’q
```

- M yoki MULTILINE – yangi qator belgisi ("\ n") bilan ajratilgan bir nechta pastki satrlardan iborat qatorda qidirish. ^ belgisi har bir kichik satr boshiga biriktirilagan, $ belgisi esa yangi satr belgisidan oldingi holatiga mos keladi.
- S yoki DOTALL - odatiy holda “nuqta” metasimvollari satr o’tkazish (\n) dan tashqari har qanday belgiga mos keladi. Satrga o’tkazish belgisi “nuqta”

metasimvoli qo'shimcha modifikator ishtirokida mos keladi. ^ belgisi langarni butun satr boshiga, $ belgisi esa butun satr oxiriga to'g'ri keladi. Misol:

```
>>> p = re.compile (r"^.$")
>>> print ("Topildi" if  p.search ("\n" )  else  "Yo’q" )
Yo’q
>>> p = re.compile (r"^.$", re.M)
>>> print ("Topildi" if  p.search ("\n" )  else  "Yo’q" )
Yo’q
>>> p = re.compile (r"^.$", re.S)
>>> print ("Topildi" if  p.search ("\n" )  else  "Yo’q" )
Topildi
```

- x yoki VERBOSE –agar bayroq ko'rsatilgan bo'lsa, probellar va yangi qatorga o’tkazish belgisi e'tiborga olinmaydi. Izohlardan muntazam ifoda ichida ham foydalanish mumkin. Misol:

```
>>>  p = re.compile(r """  #  Satr boshiga bog’lanadi
[0 -9] + # Satr bitta (yoki ko’proq) raqmdan iborat
$ # Satr ohiriga bog’lanadi
""", re.X | re.S)
>>> print ("Topildi" if  p.search ("1234567890")  else "Yo’q")
Topildi
>>> print ("Topiladi" if p.search ("abcdl23")  else "Yo’q" )
Yo’q
```

8.2. Shablonga birinchi moslikni qidirish

Birinchi moslikni qidirish uchun quyidagu funksiya va metodlardan foydalaniladi:

- match() – satr boshlanishi bo’yicha moslikka tekshiradi. Metod formati:

match(<Satr> [, <Boshlang’ich pozitsiya> [, <Ohirgi pozitsiya>]])

Agar moslik topilsa Match obyekti qiymat qaytaradi, aksincha None qaytaradi. Masalan:

```
>>> import re
>>> p = re.compile (r "[0-9] + ")
>>> print ("Topildi" if p.match ("strl23" )  else  "Yo'q" )
Yo'q
>>> print ("Topildi" if p.match ("str123", 3)  else  "Yo'q" )
Topildi
>>> print ("Topildi" if p.match ("l23str")  else  "Yo'q" )
Topildi
```

match() metodi o'rniga .match() funksiyasidan foydalanish mumkin. Funksiya formati:

re .match (<Shablon>, <Satr> [, <Modifikator>])

<Shablon> parametrida muntazam ifodali satr yoki komplyatsiyalangan muntazam ifoda ko'rsatiladi. <Modifikator> parametrida compile() funksiyasida foydalanilgan bayroq ko'rsatilishi mumkin. Agar moslik aniqlansa, Match obyekti qaytariladi, aks holda None qiymati qaytariladi. Masalan:

```
>>> p  =  r" [0 - 9] +"
>>> print ("Topildi"  if  re .match (p,  "strl23" )  else  "Yo'q")
Yo'q
>>> print ("Topildi"  if  re.match (p, "123str")  else  "Yo'q")
Topildi
>>> p =  re . com pile (r " [0 -9] + ")
>>> print ("Topildi"  if  re . match (p, "123str")  else  "Yo'q")
Topildi
```

- search () – satrninig ihtiyoriq qismi bilan mosligini tekshirish. Metod formati:

search (<Satr> [, <Boshlang'ich pozitsiya> [, <Ohirgi pozitsiya>]])

Agar moslik aniqlansa Match obyekti, aks holda None qiymati qaytariladi. Masalan:

```
>>> p = re.compile (r"[0-9]+")
```

```
>>> print ("Topildi" if p.search ("str123")  else "Yo’q")
Topildi
>>>  print ("Topildi"  if  p. search ("l23str" )  else  "Yo’q" )
Topildi
>>>  print ("Topildi"  if  p. search("1 23str" ,  3)  else  "Yo’q" )
Yo’q
```

search () metodi o’rniga search () funksiyasidan foydalanish mumkin. Funksiya formati:

re.search(<Shablon> , <Satr> [, <Modifikator>])

<Shablon> parametrida muntazam ifodali satr yoki komplyatsiyalangan muntazam ifoda ko’rsatiladi. <Modifikator> parametrida compile() funksiyasida foydalanilgan bayroq ko’rsatilishi mumkin. Agar moslik aniqlansa, Match obyekti qaytariladi, aks holda None qiymati qaytariladi. Masalan:

```
>>> p = r" [0 -9] +"
>>> print ("Topildi"  if  re . search (p,  "str 1 23" )  else  "Yo’q" )
Topildi
>>>  p = re . compi le (r "[ 0- 9] +" )
>>>  print("Topildi"  if  re . search (p,  "str l2 3" )  else  "Yo’q" )
Topildi
```

- fullmatch () – berilgan satrni muntazam ifodaga to’liq mosligini tekshiradi. Bu metod Python 3.4 versiyadan boshlab qo’llab-quvvatlanadi. Umumiy ko’rinishi:

fullmatch (<Satr> [, <Boshlang’ich pozitsiya> [, <Ohirgi pozitsiya>]])

Moslik aniqlansa Match obyekti,aks holda None qiymati qaytariladi. Masalan:

```
>>> p =  re.compile (" [Pp]ython")
>>> print ("Topildi"  if p.fullmatch("Python")  else  "Yo’q" )
Topildi
>>>  print ("Topildi"  if  p. fullmatch("py") else  "Yo’q" )
Yo’q
>>>  print ("Topildi"  if  p.fullmatch ("Python Ware" )  else  "Yo’q")
```

```
Yo’q
>>>  print ("Topildi"  if p.fullmatch ("PythonWare", 0, 6) else  "Yo’q")
Topildi
```

fullmatch () metodi o’rniga fullmatch () funksiyasidan ham foydalanish mumkin. Funksiya formati:

re.fullmatch (<Shablon> , <Satr> [, <Modifikator>])

<Shablon> parametrida muntazam ifoda satri yoki muntazam ifoda konpilyatsiyasi ko’rsatiladi. <Modifikator> parametrida compile() funksiyasida foydalanilgan bayroqni ko’rsatish mumkin. Agar satr to’liq shablon bilan mos kelsa, match obyekti, aks holda None qiymati qaytariladi. Misollar:

```
>>> p =  "( Pp]ython"
>>> print ("Topildi"  if  re.fullmatch (p,  "Python")  else  "Yo’q" )
Topildi
>>>  print ("Topildi"  if  re.fullmatch (p,  "py")  else  "Yo’q")
Yo’q
```

Oldinroq foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ihtiyoriy miqdordagi sonlar yig’indisini hisoblash dasturini ko’rgan edik (4.16-misolga qarang). Shuningdek manfiy sonlar kiritilishini ham ko’zda tutilgan usulda ko’rib chiqamiz (8.1-misol).

8.1-misol. Noaniq miqdordagi sonlar yig’indisi

```
#  -*- coding :  ut f-8  -* -
import re
print("Natija olish uchun 'stop '  so’zini kiriting")
summa = 0
p=re.compile(r"^[-]?[0-9]+$",re.S)
while True:
  x =input("Sonni kiriting: ")
  if x =="stop":
    break  #  Sikldan chiqish
  if not p.search(x):
    print("Satr emas, son kiritish kerak!" )
```

```
        continue  #  Siklning keying iterasiyasiga o’tish
      x=int(x) # Satrni songa o’tazamiz
      summa=summa+x
print("Sonlar yig’indisi:",  summa)
input ()
```

Muhokama uchun savollar va topshiriqlar

1. Pythonda muntazam ifodalar.
2. Pythonda muntazam ifoda sintaksisi.
3. Pythonda shablonga birinchi moslikni qidirish.
4. Pythonda shablonga barcha moslikni qidirish.
5. Pythonda satrni almashtirish

9-BOB. RO’YXATLAR, KORTEJLAR, TO’PALAMLAR VA DIAPAZONLAR (6-soat)

O`quv modullari

Ro’yxatlar, kortejlar, to’plamlar, diapazonlar, element pozitsiayasi, murojaat qilish, qirqim olish, konkatenasiya, takrorlash, kortej elementlari, obyekt.

9.1. Ro’yxatlar

Ro’yxatlar, kortejlar, to’plamlar va diapazonlar – bu obyektlarning tartiblangan to’plamidir. To’plamning har bir elementi faqatgini ixtiyoriy turdagi obyektga havola saqlay olishi sabab o’zida cheklanmagan darajadagi imkoniyat taqdim qiladi.

To’plamdagi element pozitsiayasi indeks orqali aniqlanadi. Elementlarni tartiblash 0 dan boshlanadi.

Ro’yxatlar va kortejlar shunchaki elementlarning tartiblangan ketma-ketligidir. Barcha ketma-ketliklar singari ular elementga indeks bo’yicha murojaat qilish, qirqim olish, konkatenasiya (+ operatori), takrorlash (* operatori), tegishlilikka (in operatori) yoki tegishli emaslikka (not in operatori) tekshirish amallarini qo’llaydi.

✓ Ro’yxatlar o’zgaruvchan tiplar toifasiga kiradi. Biz elementni nagfaqat indeks bo’yicha chop qilishimiz, balki uni o’zartira oilishimiz ham mumkinligini anglatadi:

```
>>> arr = [1, 2, 3]  # Ro’yxat yaratamiz
>>> arr [0]          # indeks bo’yicha elementni amiqlaymiz
1
>>> arr [0] = 50  #  indeks bo’yicha elementni o’zgartiramiz
>>> arr
[50, 2, 3]
```

Kortejlar o’zgarmas tiplar toifasiga mansub. Kortej elementlarini indeks bo’yicha aniqlash (olish, chop etish) mukin, biroq o’zgartirish mumkin emas:

```
>>> t = (1, 2, 3)            #  Kortej yaratamiz
```

```
>>> t [0]                    # Indeks bo'yicha elementni olamiz
1
>>> t[0] = 50 # Indeks bo'yicha elementni o'zgartirish mumkin emas
Traceback (most recent call last ) :
File "<pyshell#7 >", line 1, in <module>
t[0] = 50 # Indeks bo'yicha elementni olamiz
TypeError: 'tuple ' obj ect does not support item assignment
```

To'plam o'zgaruvchan kabi bo'lishi ham mumkin, o'zgarmas kabi ham mumkin. Uning asosiy farqi o'zida unikal qiymatlarni saqlashidadir (bir hil qiymatlar avtomatik yo'qotiladi). Masalan:

```
>>> set([0, 1, 1, 2, 3, 3, 4])
{0, 1, 2, 3, 4}
```

✓ Diapazonlar o'zida boshlang'ich va ohirgi qiymatlari hamda qadam kattaligi berilgan sonlar to'plamini aks ettiradi. Ular ning oldingi obyektlar to'plamidan muhim ustunligi tezkor xotiradan kam joy egallaydi. Masalan:

```
>>> r = range (0, 101, 10)
>>> for i in r: print (i, end = " ")
0 10 20 30 40 50 60 70 80 90 100
```

Yuqoridagi turlarni batafsil ko'rib chiqamiz.

9.2. Ro'yxat yaratish

Ro'yxat yaratish quyidagi usullarda amalga oshirilishi mumkin:

➢ list ([<Ketma-ketlik>]) funksiyasi yordamida. Funksiya ixtiyoriy ketma-ketlikni ro'yxatga o'tkazadi. Agar paraetr ko'rsatilmasa bo'sh ro'yxat yaratiladi. Masalan:

```
>>> list () # Bo'sh ro'yxat yaratamiz
[ ]
>>> list ("String" ) # Satrni ro'yxtga o'tkazamiz
[ 's' , 't', 'r', 'i', 'n ', 'g' ]
>>> list ( (1, 2, 3, 4, 5)) # Kortejni ro'yxatga o'giramiz
[1, 2, 3, 4, 5]
```

- barcha royxat elementlarini kvadrat qavs ichida keltirish orqali:

```
>>> arr = [1, "str", 3, "4"]
>>> arr
[1, 'str', 3, '4 ']
```

- append () metodi yordamida element bo'yicha to'ldirish:

```
>>> arr =  []  #  Bo'sh ro'yxat yaratamiz
>>> arr.append (l)  # Element yaratamiz  (0- indeks)
>>> arr.append (" str") # 2-element yaratamiz  (1- indeks)
>>>  arr
[1, 'str ']
```

Ro'yxat yaratishda o'zgaruvchida obyekt emas, obyektga havola saqlanadi. Buni guruhli o'zlashtirishda hisobga olish kerak. Gurugli o'zlashtirishdan sonlsr uchun, qatoralar uchun foydalanish mumkin. Ro'yxat uchun esa mumkin emas. Misol ko'rib chiqamiz:

```
>>>  x  =  y  =  [1,  2]                    #  ikkita obyekt yaratildi
>>>  x,  y
( [ 1,  2] ,  [ 1,  2] )
```

Biz bu misolda ikki elementli ro'yxat yaratdik va uni x va y o'zgaruvchilariga o'zlashtirdik. Endi y o'zgaruvchidagi ikkinchi element qiymatini o'zgartiramiz:

```
>>>  y[l]  =  100  #  ikkinchi elementni o'zgartiramiz
>>>  x,  y #  birdnaiga ikkita element qiymati o'zgarmoqda
([1,  100] ,  [1,  100])
```

Ko'rinib turibdiki har ikkala o'zgaruvchi bitta obyektni ko'rsatyapdi, alohida obyektni ko'rsatishi uchun boshqacharoq o'zlashtiramiz:

```
>>> x,  y= [1,  2],  [1,  2]
>>> y[l] = 100 #  Ikkinchi elenetni o'zgartirmiz
>>> x,  y
([1, 2], [1,  100] )
```

Ikkita o’zgaruvhci bitta obyektga havolanai ko’rsatayotganini aniqlash uchun is operatoridan foydalaniladi. Agar o’zgaruvchilar bitta obyektni ko’rsatsa, is operatori True qiymat qaytaradi:

```
>>> x = y = [1, 2] # Bu tavsiya etilmaydi
>>> x is y          # o’zgaruvchilar havolasini tekshirish
True                # demak bitta obyekni ko’rsatayapdi
>>> x, y = [1, 2], [1, 2]# to’g’ri
>>> x is y # bular farqli obyekt
False
```

9.3. Ro’yxatlar ustida amallar

Ro’yxat elementiga murojaat element indeksini kvadrat qavs orasiada ko’rsatish orqali amalga oshiriladi. Elementlar tartibi noldan boshalanadi. Masalan:

```
>>> arr = [1, "str", 3.2, "4 "]
>>> arr[0] , arr[1] , arr[2] , arr[3]
(1, 'str', 3.2, '4')
```

Pozitsion o’zlashtirishda elementlar qiymatini ihtiyoriy o’zgaruvchilarga o’zlashtirish mumkin. Bunda chap tomondagi o’zgaruvchilar soni o'ng tomondagi elementlar soniga o’zaro mos bo’lishi kerak, aks holda xatolik yuz beradi:

```
>>> x, y, z = [1, 2, 3] # Pozitsion o’zlashtirish
>>> x, y, z
(1, 2, 3)
>>> x, y = [1, 2, 3] # Elementlar soni mos bo’lishi kerak
Traceback (most recent call last):
Fi le "<pyshell#86>" , line 1, in <module>
x, y = [1, 2, 3] # Elementlar soni mos bo’lishi kerak
ValueError: too many values to unpack (expected 2)
```

Python 3 da pozitsion o’zlashtirishda chap tomondagi bitta o’zgaruvchi oldidan yulduzcha yozish va bu orqali ortiqcha elementlarni ro’yxat sifatida unga o’zlashtirish mumkin. Agar ortiqcha element bo’lmasa, bu o’zgaruvchi o’zida bosh ro’yxatni saqlaydi:

```
>>> x, y, *z = [1, 2, 3] ; x, y,
(1, 2, [3] )
>>> x, y, *z = [1, 2, 3, 4, 5] ; x, y, z
(1, 2, [3, 4, 5])
>>> x, y, *z = [1, 2] ;   x, y, z
( 1, 2, [ ] )
>>> *x, y, z = [1, 2] ;       x, y, z
( [ ], 1, 2 )
>>> x, *y, z = [1, 2, 3, 4, 5] ; x, y, z
(1, [2, 3, 4] , 5)
>>> *z = [1, 2, 3, 4, 5] ; z
[1, 2, 3, 4, 5]
```

Ro'yxat elementlarni tartiblash nol dan boshlangani uchun ohirgi element tartibi elementlar sonidan bitta kam bo'ladi. Elemntlar sonini aniqlash uchun len() funksiyasidan foydalaniladi:

```
>>> arr = [1, 2, 3, 4, 5]
>>> len (arr)  #  Elementlar sonini aniqlaymiz
5
>>>  arr [len (arr ) -1] #  Ohirgi element tartibini aniqlaymiz
5
```

Agar ko'rsatilgan indeksdagi element mavjud bo'lmasa, IndexError xatoligi yuz beradi:

```
>>> arr = [1, 2, 3, 4, 5]
>>> arr [5]  # Mavjud bo'lmagan elementga murojaat
Traceback (most recent call last):
File "<pyshell#99>", line 1, in <module>
arr [5]  # Mavjud bo'lmagan elementga murojaat
IndexError: list index out of range
```

Indeks sifatida manfiy qiymatdan foydalanih mumkin. Bu holda tartiblanish ro'yxat oxiridan boshlanadi. Agar indeksni musbatlashtirmoqchi bo'lsak, elementlar sonidan manfiy indeksni ayrladi. Masalan:

```
>>> arr = [1, 2, 3, 4, 5]
>>> arr [- 1] , arr [len (arr) -1] # Oxirgi elementga murojaat
(5, 5)
```

Ro'yxatlar o'zgaruvchi turlaga kirgani uchun indekslar yordamida ularning elementlarini o'zgartirish mumkin:

```
>>> arr = [1, 2, 3, 4, 5]
>>> arr [0] = 600 # indeks bo'yicha elementni o'zgartirish
>>> arr
[600, 2, 3, 4, 5]
```

Bundan tashqari ro'yxatlarda ko'rsatilgan qismdagi ro'yxat elementlarini nusxalab olish imkoniayati mavjud. Amal formati:

[<Boshlanish> :<Ohiri> :<Qadam>]

Barcha barametrlar majburiy emas. Agar <Boshlanish> ko'rsatilmasa qiymat siaftida 0 olinadi, <Ohiri> ko'rsatilmasa ohirigacha olinadi.

Agar :<Qadam> parametri kiritilmasa 1 qiymatdan foydlaniladi. Parametrlar qiymati sifatida manfiy son olinishi mumkin. Misol ko'rib chiqamiz. Dastlab ro'yxat yuzaki nusxasini olamiz:

```
>>> arr = [1, 2, 3, 4, 5 ]
>>> m = arr[ : ]; m # Yuzaki nusxa yaratamiz va qiymatni chop etamiz
[1, 2, 3, 4, 5 ]
>>> m is arr # is operatori turli obyekt ekanligini ko'rsatyapdi
False
```

Endi belgilarni teskari tartibda chop etamiz:

```
>>> arr = [1, 2, 3, 4, 5 ]
>>> arr [ : : -1 ] # - 1 qadam
[5, 4, 3, 2, 1]
```

Birinchi va ohirgi elementsiz chop etamiz:

```
>>> arr [1:]              # birinchi elementsiz
[2, 3, 4, 5]
>>> arr [ :- 1]           # Ohirgi elementsiz
[1, 2, 3, 4]
```

Ro'yxatning birinchi ikki elementini olamiz:

```
>>> arr [0:2]             # 2 indeksli belgi chop etilmaydi
[1, 2]
```

Endi ohirgi elementni chop etamiz

```
>>> arr[- 1:]       # ro'yxatning ohirgi elementi
[5]
```

Va nihoyat ikkinchidan to'rtinchigacha elemetlarni chop etamiz:

```
>>> arr[1:4]  # 1, 2 va 3 indeksli elementlar olinadi
[2, 3, 4]
```

Qirqim bo'yicha ro'yxat bo'lagini o'zgartirish mumkin. Agar qirqimda bo'sh ro'yxat o'zlashtirilsa, ushbu bo'lak asosiy ro'yxatdan o'chiriladi:

```
>>> arr = [1, 2, 3, 4, 5]
>>> arr[ l:3 ] = (6, 7) # 1 va 2 indeksli elementni o'zgartiramiz
>>> arr
[1, 6, 7, 4, 5 ]
>>> arr[l:3 ] = [ ] # 1 va 2 indeksli element o'chiriladi
>>> arr
(1, 4, 5]
```

Ikkita ro'yxatni bittaga birlashtirishda + operatoridan foydalaniladi:

```
>>> arrl = [1, 2, 3, 4, 5]
>>> arr2 = [ 6, 7, 8, 9]
>>> arr3 = arrl + arr2
>>> arr3
[1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9]
```

+ operatori o’rniga += operatoridan foydalanish mumkin. Bu holda elementlar joriy ro’yxatga qo’shiladi:

```
>>> arr = [1 , 2, 3, 4, 5]
>>> arr += [6 , 7, 8, 9]
>>> arr
[1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 ]
```

Ko’rib chiqilgan amallardan tashqari ro’yxatlar uchun takrorlash(* operatori yordamida), tegishlilikka tekshirish (in operatori yordamida) amallarini qo’llash mumkin:

```
>>> [ 1, 2, 3] * 3 # takrorlash amali
[1, 2, 3, 1, 2, 3, 1, 2, 3]
>>> 2 in [1, 2, 3, 4, 5], 6 in [1, 2, 3, 4, 5] #Tegishlilikka tekshirish
(True, False)
```

9.4. Ko’p o’lchamli ro’yxatlar

Ro’yxat elementi ixtiyoriy tipli obyekt bo’lishi mumkin. Masalan, ro’yxat elementi son, satr, ro’yxat, kortej, lug’at va boshqalar bo’lishi mumkin. Ko’p o’lchamli ro’yxatlarni quyidagicha yaratish mumkin:

```
>>> arr = [ [1, 2, 3] , [4, 5, 6] , [7, 8, 9]]
```

Qavs ichida bir nechta satrlarni keltirish mumkin.

Demak, oldingi misolni quyidagicha yozish mumkin:

```
>>> arr = [
[1, 2, 3],
[4, 5, 6],
[7, 8, 9]
```

Ko’p o’lchamli ro’yxat elementini ko’rsatish uchun ikkita indeks ko’rsatiladi:

```
>>> arr [l] [1]
5
```

Ikki o’lchamli ro’yxat elementi sifatida yana ro’yatmi keltirish mumkin va bu ichma-ich joylshtirilib boriladi. Ko’p o’lchamli ro’yxatda elementni ko’rsatish uchun esa nechta o’lchamli ro’yxat bo’lsa ushancha indekslar yoziladi. Masalan:

```
>>>  arr = [[1, ("a",  "b"], 3],  [4,  5,  6] ,  [7,  8,  9] ]
>>>  arr  [0] [1] [0]
'a'
```

9.5. Ro’yxat elemantlarini saralash

Ro’yxatning barcha elementlari bo’ylab yurib chiqish uchun for operatoridan foydalanish mumkin:

```
>>>  arr [1, 2, 3, 4, 5]
>>>  for i in arr: print (i, end="  ")
1 2 3 4 5
```

Yodda tutish kerakki, ***i*** o’zgaruvchisi sikl ichida o’zgarishi mumkin, biroq u o’zgarnmas tipni ko’rsatsa (masalan son yoki satrni) elementlarni o’zgartira olmaydi:

```
>>> arr = [1, 2, 3, 4] # O’zgarmat tipli elementlar (son)
>>> for  i  in arr:  i +=  10
>>>  arr       #  Ro’yxat o’zgarmaydi
[1, 2,  3, 4]
>>>  arr [ [1, 2],  [3,  4]]  # O’zgaruvchan tipli elementlar (ro’yxat)
>>>  for  i  in  arr : i [0] + =  10
>>>  arr  #  Ro’yxat o’zgaradi
[[11, 2],  [13,  4] ]
```

Har bir elementni ko’rsatish masalan, indeks bo’yicha generasiyalash uchun range () funksiyasidan foydalaniladi. Funksiya obyekt-diapazon qaytaradi, iterasiyanni qo’llab-quvvatalaydi. For sikli ichida joriy iondeksni olish mumkin.

range () funksiyasi quyidagi formatga ega:

range ([<Boshlanish>,] <Ohiri> [, <Qadam>])

Birinchi parametrda boshlang’ich qiymat beriladi. Agar <Boshlanish> parametri ko’rsatilmasa, qiymat sifatida 0 olinadi.

Shuni esda saqlash kerakki, bunda diapazon indeks bo’ylab “yurib chiqadi”. Agar <Qadam> parametri ko’rasatilmasa, qiymat sifatida 1 olinadi. Ro’yxat har bir elementini 2 ga ko’paytirish misoli:

```
arr  =  [ 1 ,  2,  3,  4]
```

```
for i  in  range (len (arr) ):
arr[i]  *=  2
print (arr)
```

Natija: [2, 4, 6, 8]

Shuningdek joriy indeks va elementni ham qaytarish imkoniga ega bo'lgan enumerate (<obyekt> [, start=0]) funksiyasidan ham foydalanish mumkin. Ro'yxat har bir elementini 2 ga ko'paytiramiz:

```
arr  =  [1,  2,  3,  4]
for  i,  elem  in  enumerate(arr):
arr [i ]  *=  2
print (arr)
```

Natija: [2, 4, 6, 8]

Bundan tashqari elementlarni while siklidan foydalanib ham olish mumkin. Biroq bu holda for ga qaraganada sekinroq ishlaydi. Misol sifatida while yordamida ro'yxat elementlarini 2 ga ko'paytirishni ko'ramiz:

```
arr = [1,  2,  3,  4]
i= 0
c= len(arr )
while i < c:
arr [i]  *=  2
i  +=  1
print (arr )
```

Natija: [2, 4, 6, 8]

9.6. Ro'yxat generatorlari

Biz elementlani quyidagicha o'zgartirgan edik:

```
arr = [1, 2, 3, 4]
for i in range (len(arr)):
arr [i] *= 2
print (arr) #
```

Natija: [2, 4, 6, 8]

Ro’yxat generatori yordamida buni ixchamroq ifodlash mumkin:

```
arr = [1, 2, 3, 4]
arr = [i*2 for i in arr ]
print (arr) #
Natija: [2, 4, 6, 8]
```

Ro’yxat generatori murakkabroq strukturada ham bo’lishlari mumkin. Masalan, bir nechta for ichma-ich sikllar va unlarda joylashgan if tarmoqlanish operatoridan qatnashishgan holat. Misol uchun juft sonlarni 10 ga ko’paytirib chop etishni ko’raylik:

```
arr = [1, 2, 3, 4]
arr = [ i * 10 for i in arr if i % 2 == 0]
print (arr)
# Natija: [20, 40]
```

Ushbu kod bajarilish ketma-ketligi quyidagi kod bajarilish ketma-ketligiga teng kuchli:

```
arr = [ ]
for i in [1, 2, 3, 4] :
if i%2 == 0:          # Agar son juft bo’lsa
arr.append (i * 10)   # Element qo’shamiz
print(arr)
# Natija: [20, 40]
```

Misolni sal murakkablashtiramiz. Ro’yxatdagi juft elementlarni olamiz va ularni 10 ga ko’paytiramiz:

```
arr = [[1, 2], [3, 4], [5, 6] ]
arr = [ j * 10 for i in arr for j in i if j % 2 == 0
print (arr)                    # Natija: [20, 40, 60 ]
```

Ushbu kod bajarilish ketma-ketligi quyidagi kod bajarilish ketma-ketligiga teng kuchli:

```
arr = []
for  i  in  [[ 1,  2] ,  [3,  4] ,  [5,  6] ]:
for  j  in  i:
if  j  %  2  =  0:  #  Agar son chuft bo'lsa
arr.append (j * 10)  # Elementni qo'shamiz
print (arr)                    # Natija: [20,  40,  60 ]
```

Misol sifatida ro'yxatdagi juft sonlar yig'indisini hisoblaymiz:

```
>>> arr = [1, 4, 12, 45, 10]
>>> sum((i for i in arr if  i%2 == 0))
26
```

9.7. map(), zip(), filter() va reduce() funksiyalari

- **map ( )** funksiyasi ketma-ketlikning har bir elementiga qo'llash imkonini beradi. Funksiya quyidagi formatda beriladi:

map (<Funksiya>, <1-ketma-ketlik> [, ... ,<N-ketma-ketlik >])

map() funksiyasi iterasiyani qo'llab-quvvatlaydigan obyekt qaytaradi. Agar Python 3 versiyada ro'yxat olish uchun natijani list() funksiyasida berish kerak.

<Funksiya> parametri sifatida funksiyaga funksiya nomi (funksiya nomi aylanma qavslarsiz) chaqiriluvchi qiymatlari tartibiga mos holda beriladi. Funksiya ichida yangi qiymat qaytarish zarur. Misol sifatida ro'yxatning har bir elementiga 10 ni qo'shishni ko'rib chiqamiz (9.3-misol).

9.3-misol. map() funksiyasi

```
def  func (elem):
" " " Ro'yxatning har bir elementini oshirish" " "
return elem + 10              # yangi qiymat qaytaradi
arr  =  [1,  2,  3,  4,  5]
print (list (map (func, arr)))
#  Natija:  [11,  12 ,  13,  14 ,  15]
```

map () funksiyasi bir nechta ketma-ketlikni uzatadi. Bu holda teskari qaytar funksiya birdaniga bir siljishda bir nechta qiymatni uzatadi. Uchta ro'yxat elementlari yig'indisini aniqlaymiz (8. 4-misol).

8.4-misol. Uchta ro'yxat elementlari yig'indisini topish

```
def  func(el, e2,  e3 ) :
""" Uchta turli ro'yxat elementlari yig'indisini xisoblash"""
return  el  +  e2  +  e3  #  yangi qiymat qaytaradi
arrl = [1,  2,  3,  4,  5]
arr2 =  [1 0,  20 ,  30,  40 ,  50]
arr3  =  [100 ,  200 ,  300,  400,  500 ]
print (list (map (func ,  arrl,  arr2 ,  arr3 )  )  )
#  Natija :  [111,  2 2 2,  333,  444,  555 ]
```

Agar ketma-ketlikdagi elementlar soni turli hil bo'lsa, minimal elementlar sonicha ketma-ketlik qaytariladi:

```
def  func(e1,  e2,  e3 ):
  """Uchta turli ro'yxat elementlari yig'indisi """
  return e1 +  e2  + e3
arr1= [1, 2, 3, 4, 5]
arr2= [10,  20]
arr3  =  [100 ,  200 ,  300,  400,  500]
print (list (map (func,  arr1,  arr2,  arr3)))
#  Natija:  (111,  222 )
```

- **zip ()** funksiyasi ketma-ketliklardagi elementladan bittadan olib yangi ketma-ketlik hosil qiladi va natija sifatiada iterasiyani qo'llab-quvvatlovchi obyekt qaytaradi. Agar natijani ro'yxatga aylantirish zarur bo'lsa list() funksiyasi qo'llaniladi:

Funksiya formati:

zip (<Ketma-ketlik1> [, ... , < Ketma-ketlikN>])

Masalan:

```
>>>  zip([l,  2,  3],  [4,  5 ,  6],  [7,  8,  9])
< zip object at Ox00 FCA C88>
```

```
>>>  list (zip([l,  2,  3] ,  [4,  5,  6] ,  [7,  8,  9] ))
[(1, 4, 7),  (2,  5,  8) ,  (3,  6,  9)]
```

Agar ketma-ketlikdagi elementlar soni turlicha bo'lsa, natijaviy kortejlar eng kam sondagi elementlar sonicha bo'ladi:

```
>>>  list (zip( [l,  2,  3] ,  [4 ,  6] ,  [7 ,  8,  9,  10] ))
[(1, 4, 7), (2,  6,  8)]
```

Misol sifatida uchta ro'yxatdagi elementlarni map() funksiyasi o'rniga zip() funksiyasidan foydalanib yig'ish misolini ko'rib chiqamiz. (8.5-misol).

8.5-misol. zip() funksiyasidan foydalanib uchra ro'yxat elementlarini yig'ish

```
arr1 = [1, 2,  3,  4,  5]
arr2 = (10, 20, 30, 40, 50)
arr3 = [100,  200,  300,  400,  500]
arr = [ x + y + z for (x, y, z) in zip (arr1, arr2, arr3)]
print (arr)
#  Natija: [111, 222, 333, 444, 555]
```

9.8. Ro'yaxatga elementlar qo'shish va o'chirish

Ro'yxat elementlarini qo'shish va o'chirish uchun quyidagi metodlardan foydalaniladi:

- **append (<Obyekt>)** – ro'yxat oxiriga bitta obyekt qo'shadi. Metod joriy ro'yxatni o'zgartiradi va hech nima qaytarmaydi. Masalan:

```
>>> arr = [1, 2, 3]
>>> arr.append (4) ;                arr  #  Sonni qo'shish
[1, 2, 3, 4]
>>>  arr.append ([5, 6]) ;          arr  #  Ro'yxatni qo'shish
[1, 2, 3, 4,  [5,  6]]
>>>arr. append ((7, 8));  arr # Kortejni qo'shish
[1, 2, 3,  4, [5,  6], (7,  8)]
```

- **extend (<Ketma-ketlik>)** – ro'yxat oxiriga ketma-ketlik elementlarini qo'shadi. Metod joriy ro'yxatni o'zgartiradi va hech nima qaytarmaydi. Masalan:

```
>>> arr =  [1, 2, 3]
>>> arr.extend([4, 5, 6])  #  Ro'yxat qo'shamiz
>>> arr.extend((7, 8, 9))  #  Kortej qo'shamiz
>>> arr.extend("abc")  #  Satdan harf qo'shamiz
>>> arr
[1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 'a', 'b', 'c']
```

Bir nechta elementlarni qo'shish uchun konkatenasiya amali yoki += operatoridan foydalaniladi:

```
> >> arr =  [1,  2,  3]
>>> arr + [4,  5,  6]                #  Yangi ro'yxat qaytaradi
[1, 2, 3, 4, 5, 6]
>>>  arr +=  [4 ,  5,  6]    #  Joriy ro'yxat o'zgaradi
>>>  arr
[1,  2,  3,  4,  5,  6]
```

Bundan tashqari, qirqim olish amalidan ham foydalanish mumkin:

```
>>> arr  =  [1,  2,  3]
>>> arr [ len(arr):]  =  [4,  5,  6]  # Joriy ro'yxat o'zgaradi
>>> arr
[1,  2,  3,  4,  5,  6]
```

- **insert (<Indeks>, <Obyekt>)** – ko'rsatilgan pozitsiyaga bitta obyektni qo'shish. Qolgan elementlar suriladi. Metod joriy ro'yxatni o'zgartiradi va hech nima qayatarmaydi. Misollar:

```
>>>  arr =  [1,  2,  3]
>>>  arr.insert (0, 0) ;  arr  #  Ro'yxat boshiga 0 qiymatini qo'shadi
[0, 1, 2, 3]
>>> arr.insert (-1, 20) ;  arr # Manfiy sonni ham ko'rsatish mumkin
(0, 1, 2, 20, 3]
>>> arr.insert(2, 100);      arr      #  2 pozitsiyaga 100  ni qo'yamiz
[0, 1, 100, 2, 20, 3]
```

```
>>> arr.insert (10, [4, 5]) ;  arr  #  Ro'yxat qo'shamiz
[0, 1, 100, 2, 20, 3, [4, 5]]
```

insert() metodi faqat bitta obyekt yaratishga imkon beradi. Agar bir nechta obyekt qo'shilsa, qirqim olib o'zlashtirish amalidan foydalanish mumkin. Bir nechta elementlarni ro'yxat boshiga qo'shamiz:

```
>>> arr = [1, 2, 3]
>>> arr [:0] = [-2, -1, 0]
>>> arr
[-2, -1, 0, 1, 2, 3]
```

- **pop ([<Indeks>])** – ko'rsatilgan indeksda joylashagan elementni o'chiradi va uni qaytaradi. Agar indeks ko'rsatilamasa, ro'yxatning ohirgi elementi ochiriladi va qaytariladi.

Agar ko'rsatilgan indeksdagi element yo'q bo'lsa yoki ro'yxat bo'sh bo'lsa, IndexError xatoligi kelib chiqadi. Misollar:

```
>>>  arr = [1, 2, 3, 4, 5]
>>>  arr.pop()  #  Ro'yxat oxirgi elementi o'chiriladi
5
>>>  arr  #  Ro'yxat o'zgaradi
[1,  2,  3,  4]
>>>  arr.pop(0)  #  Ro'yxat birinchi elementi o'chiriladi
1
>>>  arr  #  Ro'yxat o'zgaradi
[2,  3,  4]
```

Shuningdek **del** operatori ham ro'yxat elementini o'chirishga imkon beradi:

```
>>>  arr  =  [1,  2,  3,  4,  5 ]
>>>  del  arr[4] ;  arr  # Ro'yxatning oxirgi elemntini o'chiramiz
[1,  2,  3,  4]
>>> del arr[:2]; arr #Ro'yxatning birinchi va ikkinchi elementini o'chiramiz
[3, 4]
```

remove (<Qiymat>) - ko’rsatilgan qiymatga teng birinchi elementni o’chirish. Agar element topilmasa, valueError xatoligi yuz beradi.

Metod joriy ro’yxatni o’zgartiradi va hech nima qaytarmaydi. Misollar:

```
>>> arr = [1, 2, 3, 1, 1]
>>> arr.remove (l) # faqat birinchi element o’chiriladi
>>> arr
[2, 3, 1, 1]
>>> arr . remove (5) # bunday element yo’q
Traceback (most recent call last ) :
File "<pyshell# 3>" , line 1, in <module>
arr.remove (5) # Bunday element yo’q
ValueError: list.remove (x): x not in list
```

- **clear ()** – ro’yxatning barcha elementlarini o’chirib uni tozalash. Hech qanday natija qaytarilmaydi. Ushbu metod Python 3.3 versiyadan boshlab ishlatilgan. Masalan:

```
>>> arr = [1, 2, 3, 1, 1]
>>> arr.clear ()
>>> arr
[]
```

9.9. Ro’yxat elementlarini qidirish va ro’yxatga kirivchi qiymatlari haqida ma’lumot olish

Oldingi mavzularda ro’yxatga elementlarni tegishliligini tekshirish uchun in operatoridan foydalanish mumkinligini aytib o’tgan edik. Agar element ro’yxataga tegishli bo’lsa True natija qaytaradi, aks holda False. Shu operatorning aynan teskarisi ham mavjud. Yani elementni tegishli emaslikka tekshiruvchi **not in.** Agar tegishli bo’lmasa True, aks holda False qaytaradi. Misollar:

```
>>> 2 in [1, 2, 3, 4, 5], 6 in (1, 2, 3, 4, 5] #tegishlilikka tekshirish
(True, False)
>>> 2 not in [1, 2, 3, 4, 5], 6 not in [1, 2, 3, 4, 5] #tegishli emaslikka tekshirish
```

(False, True)

Bu ikkala operator ham elementning ro'yxatda joylashgan o'rni haqida hech qanday ma'lumot bermaydi. Elementning ro'yxatda joylashgan o'rnini aniqlash uchun **index()** metodi ishlatiladi.

Metod formati:

index (<Qiymat> [, <Boshlanish> [, <Tugash>]))

index() ko'rsatilgan qiymataga teng ro'yxat elementi indeksini qaytaradi. Agar qiymat ro'yxatda topilmasa, ValueError xatoligi kelib chiqadi. Agar ikkinchi va uchinchio parametrlar ko'rsatilmasa, qidirish ro'yxat boshidan ohirigacha amalga oshiriladi. Misol:

```
>>> arr = [1, 2 , 1, 2, 1]
>>> arr.index (1) , arr.index (2)
(0, 1)
>>> arr.index (1, 1) , arr.index (1, 3, 5)
(2, 4)
>>> arr.index (3)
Traceback (most recent call last):
File "<pyshell#16>" , line 1, in <module>
arr.index (3)
ValueError: 3 is not in list
```

Ko'rsatilgan qiymatga teng elementlar sonini aniqlash uchun count (<Qiymat>) ishlatiladi. Agar element ro'yxatda chiqmasa, 0 qiymatini qaytaradi. Misol:

```
>>> arr = [1, 2, 1, 2, 1]
>>> arr . count (1), arr.count (2)
(3, 2 )
>>> arr.count (3) # Element ro'yxatda topilmadi
0
```

Ro'yxatdagi eng katta va eng kichik qiymatlarni aniqlash uchun mos ravishda max() va min() funksiyalaridan foydalaniladi. Masalan:

```
>>> arr = [1, 2 , 3, 4, 5]
```

```
>>> max (arr),  min (arr)
(5, 1)
```

9.10. Ro’yxatni teskarilash va aralshtirish

reverse () metodidan ro’yxat elementlarini teskari tartibda joylashtirish uchun foydalaniladi. Metod joriy ro’yxatni o’zgartiradi va hech nima qaytarmaydi. Masalan:

```
>>>  arr  = [1,  2,  3,  4,  5]
>>>  arr.reverse () #  Joriy ro’yxatni o’zgartiradi
>>>  arr
[5, 4, 3, 2, 1]
```

shuffle (<Ro’yxat> [, <0.0 dan 1.0 gacha son>]) random modulidan olingan elementlarni tasodifiy «joylashtirish» funksiyasi. Funksiya elementlar joyini o’zgartiradi holos va u qiymat qaytaramaydi.

Agar ikkinchi parametr ko’rsatilmasa, random () funksiyasi paarmetridan foydalaniladi.Masalan:

```
>>>  import  random  #  random modulini bog’laymiz
>>>  arr  =  [1,  2,  3,  4,  5, 6, 7,  8,  9,  10]
>>>  random. shuffle (arr ) #  Elelementlar tasodifiy joylashtiriladi
>>> arr
 [2, 7, 10, 4, 6, 8, 9, 3, 1, 5]
```

9.11. Tasodifiy elementni tanlash

Ro’yxatdan tasodifiy elementni tanlab olish uchun random modulidan quyidagi funksiyalar ishlatiladi:

- choice (<Ketma-ketlik>) – ixtiyoriy ketma-ketlikdan(satr, ro’yxat, kortej) tasodifiy elemntni olish uchun:

```
>>>  import  random  #  random modulini ulaymiz
>>>  random.choice(["s", "t", "r"]) #  Ro’yxat
's'
```

- sample (<Ketma-ketlik>, <Elementlar soni>) – ro’yxatdan ko’rsatilgan miqdordagi elementlarni tasodifiy tanlab olish.

Ketma-ketlik sifatida iterasiyani qo'llab-quvvatlovchi ixtiyoriy obyektni ko'rsatish mumkin. Masalan:

```
>>> arr = [1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10]
>>> random. sample(arr, 2)
(7, 10)
>>> arr # Ro'yxatni o'zi o'zgarmaydi
(1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10)
```

9.12. Ro'yxatni saralash

Ro'yxatni saralash uchun sort() metodidan foydalaniladi. U quyidagi formatga ega:

```
sort ([key=None] [, reverse=False])
```

Barcha parametrlar majburiy emas. Metod joriy ro'yxatni o'zgartiradi va hech nima qaytarmaydi. Odatdagi holda saralanish o'sish tartibida bo'ladi:

```
>>> arr = (2, 7, 10 , 4, 6, 8, 9, 3, 1, 5]
>>> arr.sort () # Joriy ro'yxat o'zgaradi
>>> arr
(1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10)
```

Agar kamayish tartibioda saralash zarur bo'lsa, reverse parametri qiymati sifatiada True ko'rsatilishi kerak:

```
>>> arr = [2 , 7, 10, 4, 6, 8, 9, 3, 1, 5]
>>> arr.sort(reverse = True ) # Kamayish tartibida saralash
>>> arr
(10, 9, 8, 7, 6, 5, 4, 3, 2, 1]
```

Yodda saqlash kerakki, standart saralash belgilar registriga bog'liq (8.8-misol).

8.8-misol. Standart saralash

```
arr = ["bir", "Bir1", "bir2"]
arr.sort ()
for i in arr:
print (i, end= " ")
# Natija: Bir1 bir bir2
```

Natijada esa noto’g’ri saralanish chop etiladi.

Agar belgilar registrini hisobga olmaslik kerak bo’lsa, key parametrida funksiyaga havola ko’rsatiladi (8.9-misol).

8.9-misol. Foydalanuvchi saralashi

```
arr = ["bir", "Bir1", "bir2"]
arr.sort (key=str.lower)   #  lower () metodini ko’rsatamiz
for i in arr:
print (i, end=" ")

# Natija:  bir Bir1 bir2
```

sort ( ) metodi ro’yxatni saralaydi va hech qanday qiymat qaytarmaydi. Bazi holatlarda saralanagan ro’yxatni olish va joriy ro’yxatni esa o’zgarishsiz qoldirish zarur bo’ladi. Bu holler uchun sorted() funksiyasidan foydalaniladi. Funksiya quyidagi formatga ega:

sorted (<Ketma-ketlik>[, key=None] [, reverse=False])

Birinchi parametrda saralanadigan ro’yxat ko’rsatiladi. Qolgan parametrlar sort() metodi parametrlari bilan bir hil. sorted() funksiyasidan foydalanishga doir misolni ko’rib chiqamiz (8.10-misol).

8.10-misol. sorted() funksiyasidan foydalanish

```
>>> arr = [2, 7, 10, 4, 6, 8, 9, 3, 1, 5]
>>> sorted (arr ) # yangi ro’yxat qaytaradi!
[1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10]
>>> sorted (arr, reverse=True ) # Yangi ro’yxat qaytaradi!
[10, 9, 8, 7, 6, 5, 4, 3, 2, 1]
>>> arr = ["bir 1" , "Bir" , "Bir2"]
>>> sorted (arr, key=str.lower)
['Bir', 'bir 1', 'Bir2']
```

9.13. Ro’yxatni sonlar bilan to’ldirish

Diapazon tarkibida bo’lgan sonlardan ro’yxat yaratish uchun range() funksiyasidan foydalanish mumkin. Bu funksiya list() funksiyasini ishlatib ro’yxatga o’tkazish mumkin bo’lgan diapazon qaytaradi.

range() funksiyasi quyidagi formatga ega:

range ([<Boshlang’ich qiymat>,] <Ohirgi qiymat> [, <Qadam>])

birinchoi parameter – <Boshlang’ich qiymat> ko’rsatilmasa 0 qiymat olinadi.

Ikkinchi parameter ohirgi qiymat bo’lib, bu qiymat qaytariluvchi diapazonni aniqlaydi. Agar <Qadam> parametri berilmasa, 1 qiymati foydalaniladi. Misol sifatida ro’yxatni 0 dan 10 gacha sonlar bilan to’ldirishni ko’ramiz:

```
>>> list (range (11))
[0, 1 , 2 , 3 , 4 , 5 , 6 , 7 , 8 , 9 , 1 0]
```

1 dan 15 gacha sonlardan iborat ro’yxat tuzamiz:

```
>>> list(range (l, 16) )
[1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14 , 15]
```

Endi sonlar tartibini qarama-qarshisiga o’zgartiramiz:

```
>>> list (range(15, 0, -1 ) )
[15, 14, 13, 12, 11, 10, 9, 8, 7, 6, 5, 4, 3, 2, 1]
```

Agar olinadigan sonlar (yoki boshqa ro’yxat elementlari) tasodifiy bo’lishi zarur bo’lsa, random modulidagi sample (<Ketma-ketlik>, <Elementlar soni>) funksiyasidan foydalaniladi. Masalan:

```
>>> import random
>>> arr = [1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10]
>>> random.sample (arr, 3)
[1, 9, 5]
>>> random. sample(range (300) , 5)
[259 , 294, 142 , 292 , 245]
```

9.14. Ro’yxatni satrga o’tkazish

Ro’yxatni satrga o’tkazish uchun join () metodidan foydalaniladi.

Elementlar ko’rsatilagan bo’luvchi bilan ajtratilib qo’shiladi.Metod formati:

<Satr> = <Bo'luvchi>. join (<Ketma-ketlik>)

Misol:

```
>>> arr = [ "wordl", "word2", "word3"]
>>> "- ". join (arr)
'word1 – word2 - word3'
```

Diqqat qiling, ro'yxat elementlari ichida satr bo'lmasa, TypeError qaytariladi:

```
>>>  arr  =  ["word1",  "word2",  "word3" ,  2]
>>>  " - ". join (arr)
Traceback (most recent call last):
File "<pyshell# 69>", line 1, in <module>
11 - ".  join(arr)
TypeError:  sequence item  3:  expected  str instance ,  int  found
```

Bu xatodan qochish uchun ro'yxat elementlarida satrga o'girish funksiyasi str () dan foydalanish kerak:

```
>>> arr = ["wordl ",  "word2",  "word3",  2]
>>> "-".join ((str (i) for  i  in arr) )
'word1 - word2 - word3 - 2'
```

Bundan tashqari str () funksiyasi yordamida birdaniga ro'yxatni satr ko'rinishda tasvirlash mumkin:

```
>>> arr  =  ["wordl ",  "word2 ",  "word3 ",  2]
>>> str(arr)
"[ 'wordl ',  'word2 ',  'word3 ',  2]"
```

9.15. Kortejlar

Kotrejlar ro'yxatlar kabi elementlarning tartiblangan ketma-ketligidir. Ular ro'yxatlar bilan ko'p jixatalari bir hil, biroq bir juda muhim farqli tomoni – kortejni o'zgartirish mumkin emas. Aytish mumkinki, kortej – bu faqat o'qish uchun ruxsat etilgan ro'yxatdir.

Kortej yaratish quyidagi usullarda amalaga oshiriladi:

- tuple ([<Ketma-ketlik>]) funksiyasi yordamida. Funksiya ixtiyoriy ketma-ketlikni kortejga o'tkazishga imkon beradi. Agar parameter ko'rsatilmasa, bo'sh kortej yaratiladi. Masalan:

```
>>> tuple ( )                # Bo'sh kortej yaratamiz
>>> tuple ("String" ) #  Satrni kortejga o'tkazamiz
(' S' ,  ' t' ,  'r ' ,  'i',  'n' ,  'g' )
>>> tuple ([ l,  2,  3,  4,  5] )  #Ro'yxatni kortejga o'tkazamiz
(1,  2,  3,  4,  5)
```

- barcha elementlarni vergul bilan ajratilgan holda aylanma qavslar ichida (yoki qavssiz) ko'rsatish orqali:

```
>>> t1 = ()  # Bo'sh kortej yaratamiz
>>> t2  =  (5, )  #  Bir elementli kortej yaratamiz
>>> t3  = (1, "str" ,  (3,  4) )  #  Uch elementli kortej yaratamiz
>>> t4  = 1, "str" ,  (3,  4)  #  Uch elementli kortej yaratamiz
>>> t1,  t2 ,  t3 ,  t4
(( )  ,  (5, )  ,  (1,  ' str '  ,  (3,  4) )  ,  (1,  'str '  ,  (  3,  4)  )  )
```

Ikkinchi qatordagi misolga alohida e'tibor qarating. Agar bir elementli kortej yaratishda elemntdan so'ng albatta vergul qo'yish kerak. Aks holda bu boshqa turdagi obyekt yaratiladi. Masalan:

```
>>> t  =  (5) ;  type (t)
<class  'int'>  #  Kortej emas, son yaratildi!
>>>  t  =  ("str ") ;  type (t)
<class  'str '>  #  Kortej emas, satr yaratildi!
```

Berilgan misoldagi to'rtinchi qator qavssiz vergul yordamida ham kortej yaratish mumkinligigni ko'rasatmoqda. Shuni yodda saqlangki, Python dasturlash tilidaqavs ichida berilgan ifoda vergullar bilan ajratilsa u kortej tipiga o'zgarardi.

Elementlar o'rni indekslar orqali aniqlanadi. Ro'yxat kabi elementlar tartibi 1 dan emas 0 dan boshlanadi. Barcha ketma-ketliklar kabi kortejlar ham elementga indeks orqali murojaat qilish, qirqib olish, konkatenasiya(+), takrorlash(*) va

tegishlilikka (in) yoki tegishli emaslikka (not in) tekshirish amallarini qo'llay oladi. Masalan:

```
>>> t = (1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9)
>>> t[0] # Kortejning birinchi elementi qiymatini olamiz
1
> > > t [ :, : -1 ]          # Elemetlar tartibini o'zgartiramiz
(9, 8, 7, 6, 5, 4, 3, 2, 1)
>>> t[ 2:5 ]          # Qirqim olamiz
(3, 4, 5)
>>> 8 in t, 0 in t # Tegishlilikka tekshiramiz
(True , False)
>>> (1, 2, 3) * 3 # Takrorlash
(1, 2, 3, 1, 2, 3, 1, 2, 3)
>>> (1, 2, 3) + (4, 5, 6) # Kokatenasiya
(1, 2, 3, 4, 5, 6)
```

Kortej o'zgarmas ma'lumot tipiga tegishli. Bu indeks bo'yicha elementni olish mumkinligini, ammo o'zgartirish mumkin emasligini anglatadi:

```
>>> t = (1, 2, 3)          # Kortej yaratamiz
>>> t[0]                   #Indeks bo'yicha elementni olamiz
1
>>> t[0] = 50         #Indeks bo'yicha elementni o'zgartirish mumkin emas
Traceback (most recent call last):
File "<pyshell#95>" , line 1, in <module>
t[0] = 50 #Indeks bo'yicha elementni o'zgartirish mumkin emas
TypeError : 'tuple ' object does not support item assignment
```

Kortejlar len( ), min( ), max( ) funksiyalarni hamda index( ) va count( ) metodlarini qo'llay oladi. Masalan:

```
>>> t = (1, 2, 3) #Kortej yaratamiz
>>> len (t) #Elementlar sonini aniqlaymiz
3
```

```
>>> t = (1, 2, 1, 2, 1 )
>>> t. index(l) , t. index (2) # KOrtejadan elementlarni qidiramiz
(0, 1)
```

9.16. To’plamlar

To’plam bu tartiblanmagan unikal elementlar ketma-ketligidir. To’plamni e’lon qilish uchun set() funksoiyasidan foydalaniladi:

```
>>> s = set ()
>>> s
set ([ ])
```

set() funksiyasi shuningdek, elementlar ketma-ketligini to’plamaga o’tkazishga ham imkon beradi:

```
>>> set ("string" ) # Satrni o’tkazamiz
set (['g', ' i ', 'n ', 's' , 'r', 't'])
>>> set([l, 2, 3, 4, 5]) # Ro’yxatni o’tkazamiz
set ([1, 2, 3, 4 , 5] )
>>> set( (l, 2, 3, 4, 5)) # Kortejni o’tkazamiz
set ([1, 2, 3, 4, 5] )
>>> set([l, 2, 3, 1, 2, 3]) #Faqat unikal elementlar qoldiriladi
set ([1, 2, 3])
```

for sikli to’plam elementlarini olish (o’tkazish, ko’rsatish) uchun imkon beradi:

```
>>> for i in set([l, 2, 3] ): print i
1 2 3
```

To’plamdai elementlar sonini aniqlash uchun len() funksiyasi ishlatiladi:

```
>>> len (set ([l, 2, 3]))
3
```

To’plamlar bilan ishlashda quyidagi operator va metodlar ishlatiladi::

- | va union() - ikki to’plamni birlashtirish:

```
>>> s = set ([1, 2, 3])
>>> s.union (set ((4, 5, 6])), s | set ((4, 5, 6] )
(set ([1, 2, 3, 4, 5, 6]), set ([1, 2, 3, 4, 5, 6]))
```

Agar element allqachon to’plam tarkibida bo’lsa, qayta to’palamga qo’shilmaydi:

```
>>> set ((1, 2, 3] ) | set ((1, 2, 3])
set ([1, 2, 3])
```

- a |=b va a. update (b) – b to’plam elementlarini a to’plamaga qo’shish:

```
>>> s= set ([l, 2, 3])
>>> s.update (set([ 4, 5, 6] ))
>>> s
set ([1, 2, 3, 4, 5, 6 ])
>>> s | = set ([7, 8, 9] )
>>> s
set ([1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9])
```

- – va difference () – to’plam farqini aniqlash:

```
>>> set ([1, 2, 3]) - set ([1, 2, 4])
set ([3] )
>>> s = set ([1, 2, 3])
>>> s.difference (set ([l, 2, 4] ))
set ([3])
```

- a -= b va a.difference_update(b) – a va b to’plamdan elementlarni удаляют элементы из множества a, которые существуют и во множестве a, и во множестве b:

```
>>> s= set ([l, 2, 3])
>>> s.difference_update (set ([l, 2, 4]))
>>> s
- ✓ encoding - faylga yozishdan oldin yoki o'qiyotganda satrlarni konvertatsiya qilish uchun ishlatiladigan kodlash nomi. Atribut faqat matn rejimida ishlaydi. Shuni ham unutmangki, atributning qiymatini o'zgartira olmaysiz, chunki uni faqat o'qish mumkin. Misol:

```
>>> f = open (r"file . txt", "a", encoding="cpl25 1")
>>> f . encoding
```

' cp1251 '

>>> f . close ()

- ✓ buffer – buferga kirishga imkon beradi. Atribut faqat matn rejimida ishlaydi. Ushbu ob'ekt yordamida siz matn oqimiga baytlar ketma-ketligini yozishingiz mumkin. Misol:

  >>> f = open (r"file . txt ", "w", encoding="cp1251")

  >>> f.buffer . write (bytes ("С трока", "cp125 1"))

  6

  >>> f . close ()

13.3. Os moduli yordamida fayllarga kirish

Os moduli fayllar bilan ishlaydigan quyi darajali funksiyalardan tashkil topgan. Ushbu modulning ishlashi foydalanilayotgan operatsion tizimga bog'liq bo’ladi. Biz foydalanayotgan versiyasining nomini modulning name atributidan foydalanib olishimiz mumkin. Windows XP va undan keyingi versiyalarida atribut "nt" belgisini qaytaradi. Buni misolda ko’rib o’tsak:

```
>>> import os
>>> os.name                    # Operatsion tizim Windows7
'nt'
```

OS modulidagi quyidagi funktsiyalar fayllarga kirish uchun mo'ljallangan:

- ✓ open (<faylga yo’l>,<ochish rejimi>[, mode = 0o777]) – faylni ochadi va butun qiymatli deskriptor qaytaradi, uning yordamida fayl bilan qo'shimcha ishlash amalga oshiriladi. Agar faylni ochib bo'lmaydigan bo'lsa, OSError istisnosi yoki OSError sinfining sinfosti bo'lgan istisnolaridan birini qaytaradi. Windows operatsion tizimidagi <ochish rejimi (Mode)> parametrida quyidagi belgilarni ko'rsatish mumkin:
  - os.O_RDONLY – faqat o’qish
  - os.O_WRONLY – faqat yozish
  - os.O_RDWR – o’qish va yozish

- os.O_APPEND – faylni oxiriga qo’shish
- os.O_CREAT – Agar fayl mavjud bo’lmasa va os.O_EXCL belgisi ko’rsatilmagan bo’lsa, fayl yaratadi.
- os.O_EXCL – bu os.O_CREAT belgisi bilan birgalikda yangi fayl yaratish uchun qo’llaniladi. Agar fayl mavjud bo’lsa FileExistsError xatolik qaytaradi.
- os.O_TEMPORARY - bu ham os.O_CREAT belgisi bilan birgalikda yopilgandan so'ng darhol avtomatik ravishda o'chiriladigan yangi vaqtinchalik fayl yaratish uchun qo’llaniladi.
- os.O_SHORT_LIVED – bu belgi os.O_TEMPORARY belgisi kabi foydalaniladi. Faqat yaratilgan fayl operativ xotirada saqlanib qoladi.
- os.O_TRUNC - fayl tarkibini tozalash uchun ishlatiladi.
- os.O_ BINARY – faylni ikkilik(binar) rejimida ochish.
- os.O_TEXT – faylni matn rejimida ochish. Windows operatsion tizimida fayl odatda matn rejimida ochiladi.

Keling bir necha misollarni ko’rib chiqaylik. Faylni yozish uchun ochamiz va unga bitta qator yozamiz. Agar fayl mavjud bo’lmasa uni yaratamiz, mavjud bo’lsa uni tozalaymiz:

```
>>> import os # Modulni bog’laymiz
>>> mode = os.O_WRONLY | os.O_CREAT | os.O_TRUNC
>>> f = os . open ( r" file.txt", mode)
>>> os.write (f, b"String\n" )          # Ma’lumotlarni yozamiz
8
>>> os.close ( f)                       # Faylni yopamiz
```

Faylni oxiriga yana bitta qator qo’shamiz:

```
>>> mode = os.O_WRONLY | os.O_CREAT | os.O_APPEND
```

```
>>> f = os.open ( r" file.txt", mode )
>>> os . write (f, b"String2 \n" )        # Ma’lumotlarni yozamiz
8
>>> os.close (f)                          # Faylni yopamiz
```

Fayl tarkibini matn rejimida o’qiymiz:

```
>>> f = os.open ( r" file . txt", os.O_RDONLY)
>>> os.read ( f, 50)                      #  Fayldan 50 bayt o’qiymiz
b ' Stringl\nString2\n'
>>> os.close (f)                          # Faylni yopamiz
```

Endi fayl tarkibini ikkilik rejimida o’qiymiz:

```
>>> f = os . open (r"file.txt", os.O_RDONLY | os.O_BINARY)
>>> os.read (f, 50)                       # Fayldan 50 bayt o’qiymiz
b ' Stringl\r\nString2\r\n '
>>> os.close (f)                          # Faylni yopamiz
```

- ✓ read (<descriptor>, <baytlar miqdori>) - fayldan ko’rsatilgan miqdordagi bayt sonini o'qiydi. Fayl tugagandan so'ng, bo'sh satr qaytariladi. Misol:

  ```
  >>> f = os . open ( r" file.txt", os.O_RDONLY)
  >>> os.read ( f, 5 ) , os.read (f, 5 ) , os.read (f, 5) , os.read ( f, 5)
  (b' Strin ', b' gl \nS ', b ' tring', b' 2 \n ' )
  >>> os.read (f, 5)                    # Faylni tugatish
  b ' '
  >>> os . close (f)                    # Faylni yopamiz
  ```

- ✓ write (<descriptor>, <baytlar ketma-ketligi>) – faylga baytlar ketma-ketligini yozadi. Yozilgan baytlar sonini qaytaradi.
- ✓ Close (<descriptor>) – faylni yopadi.

13.4. StringIO va BytesIO sinfi

IO modulidagi StringIO sinfi fayl ob'ekti sifatida satrlar bilan ishlashga imkon beradi. Ushbu fayl ob'ekti bilan barcha amallar (keyingi qatorlarda biz uni "fayl" deb ataymiz) operativ xotirada bajariladi. Sinf konstruktorining formati quyidagicha:

StringIO ([<Boshlang'ich qiymat >] [, newline=None])

Agar birinchi parametr ko'rsatilmagan bo'lsa, unda boshlang'ich qiymat bo'sh satr bo'ladi. Ob'ekt yaratilgandan so'ng, hozirgi holat ko'rsatkichi "fayl" ning boshiga o'rnatiladi. Sinf konstruktori tomonidan qaytarilgan ob'ekt quyidagi metodlarga ega:

- ✓ close () – “fayl”ni yopadi. "fayl" ochiq yoki yopiq ekanligini tekshirish uchun closed atributidan foydalanadi. Atribut agar “fayl” yopilgan bo’lsa True qiymat qaytaradi, aks holsa esa False qiymat qaytaradi.

- ✓ getvalue () – fayl tarkibini satr ko’rinishida qaytaradi.

```
>>> import io                    # Modulni bog’laymiz
>>> f = io.StringIO("String1\n")
>>> f.getvalue()                 # Fayl tarkibini olamiz
'String1\n'
>>> f.close()                    # Faylni yopamiz
```

- ✓ tell () – “fayl” boshiga nisbatan ko'rsatgichning joriy holatini qaytaradi.
- ✓ write (<satr>) – “fayl” ga satrni yozadi:

```
>>> f = io . StringIO ( "S tringl \n")
>>> f.seek (O, 2)          # ko’rsatkichni “fayl”ning oxiriga o’tkazamiz
8
>>> f.write ( "String2\n")      # satrni “fayl”ga yozamiz
8
>>> f.getvalue ()               # “fayl” tarkibini olamiz
'Stringl \nString2 \n '
>>> f.close ()                  # “fayl”ni yopamiz
```

- ✓ writelines (<ketma – ketlik>) – “fayl”ga ketma-ketlikni yozadi:

```
>>> f = io.StringIO ()
>>> f.writelines ( [" Stringl\n", "String2\n" ] )
>>> f.getvalue ()          # “fayl” tarkibini olamiz
' Stringl \nString2\n '
>>> f.close ()                    # “fayl”ni yopamiz
```

- ✓ read (<belgilar miqdori>) - "fayl" dan ma'lumotlarni o'qiydi. Agar parametr ko'rsatilmagan bo'lsa, u holda "fayl" ning tarkibi ko'rsatgichning joriy holatidan "fayl" oxirigacha qaytariladi. Agar siz parametr sifatida raqamni ko'rsatsangiz, unda har bir murojaatda ko’rsatilgan belgilar soni qaytariladi. "fayl" tugagandan so'ng, metod bo'sh satrni qaytaradi. Misol:

```
>>> f = io . String IO ( "Stringl \nString2\n" )
>>> f.read ()
' Stringl\nString2\n '
>>> f . seek (0)                  # ko’rsatkichni “fayl”ning boshiga o’tkazamiz
0
>>> f.read (S) , f.read (5) , f.read (S) , f.read (S) , f.read (S)
( ' Strin ' , ' gl \nSt ' , ' ring2 ' , ' \n ' , ' ' )
>>> f.close ()                    # “fayl”ni yopamiz
```

- ✓ readline (<belgilar miqdori>) - har bir murojaatda "fayl" dan bitta satrni o'qiydi. Qaytarilayotgan satr uzatilayotgan satr belgilarini o'z ichiga oladi. Oxirgi satr istisno hisoblanadi, agar u satrga o’tkazish belgisi bilan tugamasa, u holda qo’shilmaydi. “fayl” tugagandan so'ng, bo'sh satr qaytariladi. Misol:

```
>>> f = io . StringIO ( "Stringl \nString2 ")
>>> f.readline () , f.readline () , f . readline ()
( ' Stringl\n ', ' String2 ', ' ' )
>>> f . close ()                  # “fayl”ni yopamiz
```

Agar ixtiyoriy parametrda raqam ko'rsatilgan bo'lsa, yangi satrli belgi (\ n)ni o'qish, fayl oxiridagi belgi yoki ko’rsatilgan sonli belgi fayldan o'qilguncha

amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, agar satrdagi belgilar soni parametr qiymatidan kam bo'lsa, unda ko’rsatilgan belgilar soni emas, balki bitta satr o'qiladi va agar satrdagi belgilar soni ko'proq bo'lsa, unda ko’rsatilgan belgilar soni qaytariladi. Misol:

```
>>> f = io.StringIO ( "Stringl \nString2\nString3\n")
>>> f . readline (S) , f.readline (S)
( ' Strin ' , 'gl \n ' )
>>> f . readline ( 100 )          # Bu 100 ta belgini emas, balki bitta satrni qaytaradi.
' String2 \n '
>>> f. close ()                   # “fayl”ni yopamiz
```

- ✓ readlines (<Belgilarning taxminiy soni>)– ro'yxatdagi fayl tarkibini to'liq o'qiydi. Ro’yxatning har bir elementi bitta satrni, shu jumladan satrga o’tkazish belgisini ham o'z ichiga oladi. Oxirgi satr esa istisno hisoblanadi. Agar satrni oxiri satrga o’tkazish belgisi bilan tugamagan bo’lsa, u belgi avtomatik qo’shilib qolmaydi. Misol:

```
>>> f = io.String IO ( "Stringl\n String2\nString3" )
>>> f.readlines ()
[ ' Stringl\n ', ' St ring2\n ', ' String3 ']
>>> f.close ()                    # “fayl”ni yopamiz
```

Agar ixtiyoriy parametrda raqam ko'rsatilgan bo'lsa, u holda ko’rsatilgan belgilar soni va satrning oxiridagi \n fragmentigacha o’qiydi. Keyin ushbu satr bo'linadi va ro'yxatning yangi satriga qo'shiladi. Misol:

```
>>> f = io.String IO ( "Stringl \nString2\nString3" )
>>> f . readlines(14)
[ ' S tringl\n ', ' String2 \n ']
>>> f.seek (0)                    # ko’rsatkichni “fayl”ning boshiga o’tkazamiz
0
>>> f.readlines (17)
[ ' Stringl\n ', ' String2\n ' , ' String3 ']
```

```
>>> f . close ()                # “fayl”ni yopamiz
```

- ✓ flush - buferdan ma'lumotlarni "fayl"ga chiqaradi.
- ✓ truncate (<belgilar miqdori>) – “fayl” ni ko’rsatilgan belgilar soniga qisqartiradi. Misol:

```
>>> f = io . StringIO ( "Stringl\nString2 \nString3")
>>> f . truncate (15)           # “fayl”ni qirqamiz
15
>>> f. getvalue ()              # “fayl” tarkibini olamiz
' Stringl\nString2 '
>>> f.close ()                  # “fayl”ni yopamiz
```

Ko’rib turganingizdek, StringIO sinfi faqat satrlar bilan ishlaydi. Baytlar ketma-ketligi bo'lgan "fayllar" da shunga o'xshash operatsiyalarni bajarish uchun IO modulining BytesIO sinfidan foydalanamiz. Sinf konstruktorining formati quyidagicha:

BytesIO ([<Boshlang'ich qiymat >])

BytesIO sinfi StringIO sinfi bilan bir xil metodlarni qo'llab-quvvatlaydi, ammo metodlar satrlarni emas, balki baytlarning ketma-ketligini qiymat sifatida qabul qiladi va qaytaradi. Keling, misol yordamida asosiy operatsiyalarni ko'rib chiqaylik:

```
>>> import io                   # Modulni bog’laymiz
>>> f = io.BytesIO (b"Stringl \n")
>>> f.seek(0, 2)                # ko’rsatkichni faylning oxiriga o’tkazamiz
8
>>> f.write (b"String2 \n")     # faylga yozamiz
8
>>> f.getvalue ()               # fayl tarkibini olamiz
b ' Stringl\nString2 \n'
>>> f.seek (0)                  # ko’rsatkichni faylning boshiga o’tkazamiz
```

```
0

>>> f.read()                    # ma’lumotlarni o’qiymiz

b ' Stringl \nString2\n '

>>> f.close ()                  # faylni yopamiz
```

BytesIO sinfi, shuningdek, *memoryview* ob'ektiga havolani qaytaradigan getbuffer() metodini qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu ob'ekt yordamida siz ma'lumotni indeks yoki qism bo'yicha olishingiz va o'zgartirishingiz, ma'lumotlarni butun sonlar ro'yxatiga (tolist() metodi yordamida) yoki baytlar ketma-ketligiga (tobytes () metodi yordamida) o'zgartirishingiz mumkin. Misol:

```
>>> f = io.BytesIO (b" P ython" )

>>> buf = f.getbuffer ()

>>> buf [0]                     # Indeks bo’yicha belgini olamiz

b 'P'

>>> buf [0] = b"J"              # Indeks bo’yicha belgini o’zgartiramiz

>>> f.getvalue ()               # Tarkibini olamiz

b ' Jython '

>>> buf.tolist ()               # Raqamlar ro’yhatiga o’tkazamiz

[74 , 12 1, 116, 104 , 111 , 110]

>>> buf.tobytes ()              # bytes tipiga o’tkazamiz

b ' Jython '

>>> f . close ()                # faylni yopamiz
```

13.5. Fayl va kataloglarga kirish huquqi

UNIX oilasiga tegishli operatsion tizimlarida har bir ob'ektga (faylga yoki katalogga) ma'lum bir foydalanuvchi turiga mos kirish huquqlari beriladi. Masalan, tizim egasiga, gruppaga va hokazolarga. Quyidagi kirish huquqlari berilishi mumkin:

- o’qish;
- yozish;
- bajarish;

Kirish huquqlarini harflarda quyidagicha ko'rsatilgan bo’ladi:

- r – faylni o'qish va katalog tarkibini ko'rish mumkin;
- w – faylni o'zgartirish, o'chirish va nomini o'zgartirish, katalogda fayllarni yaratish yoki o'chirish mumkin. Katalog qayta nomlanishi yoki o'chirilishi mumkin.
- x - faylni bajarish mumkin va katalogda fayllar bilan ishlash, shu jumladan undagi fayllarni izlashni amalga oshirish mumkin.

Faylga kirish huquqi shunga o'xshash yozuv bilan belgilanadi:

    -rw-r--r--

Birinchi – belgisi faylga hech qanday kirish huquqini bermaydi. Keyingi 3 ta belgi

(rw-) fayl egasiga kirish, o’qish va yozish huquqini taqdim etadi. – belgisi ijro etishga ruxsat yo'qligini anglatadi. Keyingi uchta (r--) belgi guruhning faqat o'qish uchun ruxsatlarini aniqlaydi. So'nggi uchta belgi (r- -) boshqa barcha foydalanuvchilar uchun faqat o'qish huquqlarini o'rnatadi.

Katalogga kirish huquqlari quyidagi qator bilan belgilanadi:

drwxr-xr-x

Birinchida turgan d harfi buni katalog ekanligini ifodalaydi. Keyingi rwx esa katalog egasi katalogda hamma amalni bajara olishini bildiradi va guruh va boshqa barcha foydalanuvchilar katalogni faqat o'qish va qidirishni amalga oshiradi, ya’ni (r-x).

Katalogni ko'rish uchun ruxsatni (x) o'rnatish kerak. Kirish huquqlari raqam bilan ham ko'rsatilishi mumkin. Bunday raqamlarga ruxsat maskasi deyiladi. Bunday raqamlar 0 dan 7 gacha bo’lgan uchta raqamdan iborat bo’ladi. Birinchi raqam egasiga, ikkinchisi guruhga, uchinchisi esa boshqa barcha foydalanuvchilarga huquqlarni belgilaydi. Masalan, -rw-r-r-- kirish huquqi 644 raqamiga to'g'ri keladi. Keling, kirish huquqlari maskasiga, ikkilik va harfiy yozuvlarga kiritilgan raqamlarni moslashtiramiz. Uni quyidagi jadvalda ko’rsatsak:

Sakkizlik raqam	**Ikkilik yozuv**	**Harfli yozuv**	**Sakkizlik raqam**	**Ikkilik yozuv**	**Harfli yozuv**
0	000	---	4	100	r--
1	001	--x	5	101	r-x
2	010	-w-	6	110	rw-
3	011	-wx	7	111	rwx

Endi ushbu jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra rw-r--r-- kirish huquqlari quyidagicha yozilishi mumkin: 110 100 100, bu esa o’z navbatida sakkizlikda 644 raqamiga aylanadi. Shunday qilib, agar huquq berilsa, unda tegishli pozitsiya 1 ga teng, agar bo'lmasa 0 ga teng bo'ladi.

Fayl yoki katalogga kirish huquqini aniqlash uchun os modulidan access() funktsiyasidan foydalish kerak. Bu funktsiya quyidagi formatga ega:

access (<Fayl yoki katalogga yo’l>, <Rejim>)

Tekshiruv muvaffaqiyatli o'tgan bo'lsa, funktsiya True(Rost) qiymat, aks holda False(yolg’on) qiymat qaytaradi. <Rejim> parametri tekshirish turini belgilaydigan quyidagi doimiylarni o'z ichiga olishi mumkin:

- os.F_OK – yo’l yoki fayl mavjudligini tekshirish:

```
>>> import os                          # os modulini bog’laymiz
>>> os.access( r" file.txt", os.F_OK)  # Fayl mavjud
True
```

>>> os.access(r"C : \book", os.F_OK) # Katalog mavjud

True

>>> os.access(r"C : \book2", os.F_ OK) # Katalog mavjud emas

False

- os.R_OK – fayl yoki katalogning o'qish mumkinligini tekshirish;
- os.W_OK – fayl yoki katalogga yozish mumkinligini tekshirish;
- os.X_OK – fayl yoki katalogning bajarilishini aniqlash.

Dasturdan ruxsatlarni o'zgartirish uchun os modulidan chmod() funktsiyasidan foydalanish kerak. Funktsiya quyidagi formatga ega:

chmod (<Yo'l>, < Kirish huquqlari >)

Kirish huquqi 0o (bu sakkizlik yozuvni bildiradi) belgilar ketma-ketligidan keyin raqamlar ko'rinishida beriladi. Masalan:

>>> os.chmod (r"file.txt", 0o777) # Faylga to'liq ruxsatni ta'minlaydi.

13.6. Faylarni monipulyasiyalash funksiyasi

Fayllarni nusxalash va ko'chirish uchun ***shutil*** modulidan va uning quyidagi funksiyalaridan foydalaniladi:

- ✓ copyfile (<nusxa olinayotgan fayl>, <qayerga nusxalash>) – fayl tarkibini boshqa faylga ko'chirishga imkon beradi. Hech qanday huquqiy ma'lumot (masalan, ruxsatnomalar) ko'chirilmaydi. Agar fayl mavjud bo'lsa, uning ustiga yoziladi. Agar faylni nusxalash mumkin bo'lmasa, OSError istisnosi yoki ushbu sinfning sinfostisi bo'lgan istisnolardan biri qaytariladi. Misol:

  >>> import shutil # Modulni bog'laymiz

  >>> shutil.copyfile (r" file.txt", r" file2.tx t ")

  >>> # Faylga yo'l mavjud emas :

  >>> shutil.copyfile (r"file.txt", r"C : \book2\file2.txt ")

  ... Parcha chiqarib tashlandi ...

  FileNotFoundError : [Errno 2] No such file or directory :

  'C: \\book2\\file2.txt'

FileNotFoundError istisnosi OSError sinfining kichik sinfostisi bo'lib, ko'rsatilgan fayl topilmasa qaytariladi.

- ✓ copy (<nusxa olinayotgan fayl>, <qayerga nusxalash>) – faylni ruxsatnomalar bilan birga nusxalashga imkon beradi. Agar fayl mavjud bo'lsa, uning ustiga yoziladi. Agar faylni nusxalash mumkin bo'lmasa, OSError istisnosi yoki ushbu sinfning sinfostisi bo'lgan istisnolardan biri qaytariladi. Misol:

  >>> shutil.copy(r" file.txt", r" file3.txt ")

- ✓ copy2 (<nusxa olinayotgan fayl>, <qayerga nusxalash>) – barcha ma’lumotlar bilan birga faylni nusxalashga imkon beradi. Agar fayl mavjud bo'lsa, uning ustiga yoziladi. Agar faylni nusxalash mumkin bo'lmasa, OSError istisnosi yoki ushbu sinfning sinfostisi bo'lgan istisnolardan biri qaytariladi. Misol:

  >>> shutil.copy2 (r" file.txt", r" file4.txt")

- ✓ move (<faylga yo’l>, <qayerga ko’chirish>) – asl faylni o'chirib, faylni belgilangan joyga ko'chiradi. Agar fayl mavjud bo'lsa, uning ustiga yoziladi. Agar faylni ko’chirish mumkin bo'lmasa, OSError istisnosi yoki ushbu sinfning sinfostisi bo'lgan istisnolardan biri qaytariladi. File4.txt faylini C:\book\test katalogiga ko'chirishga misol:
  >>> shutil . move (r" file4.txt" , r" C:\book\test")

Fayllarning nomini o'zgartirish va o'chirish uchun ***os*** modulidan quyidagi funksiyalar qo'llaniladi:

- ✓ rename (<eski nom>, <yangi nom>) – fayl nomini o'zgartiradi. Agar faylni nomini o’zgartirish mumkin bo'lmasa, OSError istisnosi yoki ushbu sinfning sinfostisi bo'lgan istisnolardan biri qaytariladi. Istisno yordamida ishlov berish orqali fayl nomini o'zgartirishga misol:
  import os # Modulni bog’laymiz
  try :
  os . rename (r" file3.txt ", "file4.txt ")

except OSError :

print (" Fayl nomini o'zgartirib bo'lmadi ")

else :

print (" Fayl qayta nomlandi ")

- ✓ remove (<faylga yo'l>) va unlink (<faylga yo'l>) – faylni o'chirish imkonini beradi. Agar faylni o'chirish mumkin bo'lmasa, OSError istisnosi yoki ushbu sinfning sinfostisi bo'lgan istisnolardan biri qaytariladi.

>>> os.remove (r" file2.txt ")

>>> os.unlink (r" file4.txt ")

Os.path moduli tarkibida fayl mavjudligini tekshirish, fayl hajmini olish va h.k. uchun qo'shimcha funksiyalar mavjud. Ushbu funksiyalarni tavsiflaymiz:

- ✓ exists (<yo'l>) –belgilangan yo'lning mavjudligini tekshiradi. Agar yo'l mavjud bo'lsa funksiya belgisi True, aks xolda False qaytaradi.

>>> irnport os.path

>>> os . path.exists (r" file.txt ") , os.path.exists (r" file2.txt ")

(True, False)

>>> os.path.exists (r"C : \book") , os.path.exists (r"C : \book2 ")

(True, False)

- ✓ getsize (<faylga yo'l>) – fayl hajmini baytda qaytaradi. Agar fayl mavjud bo'lmasa, OSError istisnosi qaytariladi:

>>> os.path.getsize (r" file.txt ") # Fayl mavjud

18

>>> os.path.getsize (r"file2.txt ") # Fayl mavjud emas

... Parcha chiqarib tashlandi ...

OSError : [Error 2] Ko'rsatilgan faylni topish imkoni bo'lmadi : ' file2.txt '

- ✓ getatime (<faylga yo'l>) – faylga oxirgi kirish vaqtini aniqlashga xizmat qiladi. Funksiya davr boshidan beri soniya sonini qiymat sifatida qaytaradi. Agar fayl mavjud bo'lmasa, OSError istisnosi qaytariladi. Misol:

```
>>> import time # time modulini bog’laymiz
>>> t = os.path. getatime ( r" file.txt " )
>>> t
1304 111982 . 96875
>>> time . strft ime ("%d.%m. %Y %H : %M:%S", time.localtime (t) )
' 30.04 . 2 011 01 : 19:4 2'
```

- ✓ getctime (<faylga yo’l>) – fayl yaratilgan sana haqida sizga ma'lumot beradi. Funksiya davr boshidan beri soniya sonini qiymat sifatida qaytaradi. Agar fayl mavjud bo'lmasa, OSError istisnosi qaytariladi. Misol:

```
>>> t = os . path.getctime ( r" file.txt")
>>> t
1304028509.015625
>>> time. strftime ("%d . % m. %Y %H : %M : %S", time.localtime (t) )
' 2 9.04 . 2011 02 : 08 : 29 '
```

- ✓ getmtime (<faylga yo’l>) – fayl oxirgi marta o'zgartirilgan vaqtni qaytaradi. Funksiya davr boshidan beri soniya sonini qiymat sifatida qaytaradi. Agar fayl mavjud bo'lmasa, OSError istisnosi qaytariladi. Misol:

```
>>> t = os.path.getmtime( r" file.txt")
>>> t
1304 044731 .265 625
>>> time.strftime ("%d.%m. % Y %H : %M : %S", time.localtime (t) )
' 2 9.04 . 2011 06 : 38:51'
```

Os modulidagi ***stat()*** funksiyasi sizga faylning hajmini va faylni yaratish, o'zgartirish va unga kirish vaqtini, shuningdek boshqa ma’lumotlar qiymatlarini olish imkonini beradi. Funksiya stat_result obyektini qiymati sifatida o'nta xususiyatni o'z ichiga oladi: st _ mode, st _ ino, st _dev, st_nlink, st_uid, st_gid, st_size, st_atime, st_mtime va st _ctime.

13.7. Fayl yoki kataloglarga yo’lni o’zgartirish

Os.path modulidan quyidagi funksiyalar fayl yoki katalogga yo'lni o'zgartirishi mumkin:

- ✓ abspath (<Nisbiy yo'l >) – joriy ishchi katalog joylashishini hisobga olgan holda nisbiy yo'lni absolyut yo'lga o'zgartiradi. Misollar:

  >>> import os.path

  >>> os.path.abspath (r"file.txt ")

  'C:\ \ book\ \file.txt '

  >>> os.path.abspath (r" folderl /file.txt ")

  ' C : \ \ book\\folderl\\file.txt '

  >>> os.path.abspath (r" .. /file.txt ")

  'C:\ \file.txt '

  Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, nisbiy yo'lda oldinga va orqaga yotiq chiziqlarni ishlatishimiz mumkin. Ularning barchasi os.path modulidagi ***sep*** atributi qiymati asosida avtomatik ravishda konvertatsiya qilinadi. Ushbu atributning qiymati ishlatilayotgan operatsion tizimga bog'liq. Windows operatsion tizimida ***sep*** atributining qiymatini ko'rsatamiz:

  >>> os.path.sep

  ' \ \'

  Windows OTda yo'lni ko'rsatayotganda, yotiq chiziq(slesh) maxsus belgi ekanligini unutmaslik lozim. Shu sababli yotiq chiziq ikki baravarga ko'paytirilishi yoki oddiy chiziqlar o'rniga formatlanmagan satrlardan foydalanish kerak. Misollar:

  >>> "C : \ \ temp\ \new\\file.txt " # to’g’ri

  'C: \ \temp\\new\ \file.txt '

  >>> r"C : \t emp\new\file.txt " # to’g’ri

  'C:\\ tem p\ \new\ \file.txt '

  >>> "C : \temp\new\file.txt " # noto’g’ri

  ' C : \temp\new\x0cile.txt '

  Bundan tashqari, agar chiziq satrning oxirida joylashgan bo'lsa, unda formatlanmagan satrlardan foydalanganda ham uni ikki baravar oshirish kerak.

```
>>> r"C: \temp\new\ "                    # noto'g'ri !!!
SyntaxError : EOL while scanning string literal
>>> r"C : \temp\new\\"
'C:\\ temp\ \new\ \\\ '
```

- ✓ isabs (<yo'l>) – agar yo'l absolyut bo'lsa, True, aks xolda esa False qaytaradi.

```
>>> os.path.isabs (r"C: \book\ file.txt " )
True
>>> os.path.isabs ("file.txt")
False
```

- ✓ basename (<yo'l>) – fayl nomini uning yo'lisiz qaytaradi.

```
>>> os.path.basename ( r"C : \book\folderl\file.txt " )
' file.txt'
>>> os.path.basename ( r"C: \book\folder" )
' folder'
>>> os.path.basename ( "C:\ \book\\folder\\")
'  '
```

- ✓ dirname (<yo'l>) – fayl saqlanadigan papkaga yo'lni qaytaradi.

```
>>> os.path.dirname ( r"C : \book\folder\file . txt")
'C:\\ book\\folder '
>>> os.path.dirname (r"C :\book\folder" )
'C:\ \book'
>>> os.path.dirname ( "C : \\book\\folder\\ " )
'C:\\ book\\folder '
```

- ✓ split (<yo'l>) – ikkita elementdan iborat kortej qaytaradi: fayl saqlanadigan papkaga yo'l va fayl nomi:

```
>>> os.path.split (r"C : \book\folder\file.txt")
( 'C:\ \book\ \ folder', 'file.txt')
>>> os.path.split ( r"C : \book\ folder")
( ' C : \ \book ' , 'folder' )
>>> os.path.split ( "C : \ \book\ \folder\ \" )
```

(' C : \ \book\ \ folder ', ' ')

- ✓ splitdrive (<yo'l>) – yo'lni disk nomiga va yo'lning qolgan qismiga ajratadi. Ikki elementdan iborat kortej qiymat sifatida qaytariladi.

  >>> os.path.splitdrive (r"C : \book\folder\ file.txt")

  (' C: ', '\ \book\ \ folder\ \file.txt ')

- ✓ splitext (<yo'l>) – ikkita elementdan iborat kortej qaytaradi: fayl nomi bilan, lekin kengaytmasiz va fayl kengaytmasi bo'lgan yo'llar (oxirgi nuqtadan keyingi qism):

  >>> os.path.splitext (r"C :\book\folder\file.tar.gz ")

  (' C : \\book\\folder\\file.tar ', '.gz')

- ✓ join (<Yo'l 1> [, . . . , <Yo'l N>]) - belgilangan yo'llar elementlarini birlashtiradi, agar kerak bo'lsa, ular orasiga ajratgichlarni kiritish mumkin:

  >>> os.path.join("C: \\ ", "book\\folder", " file.txt")

  ' C:\\book\\ folder\\file.txt '

  >>> os.path.join (r"C:\\ ", "book/folder/", "file.txt ")

  ' C : \\\\book/folder/file.txt'

  Oxirgi misolga e'tibor qarating – faylga yo'lni ko'rsatishda turli xil yotiq chiziqlar (sleshlar) ishlatiladi va natijada yo'l noto'g'ri bo'ladi. Ushbu yo'lni to'g'ri bajarish uchun normpath () funksiyasidan foydalanishingiz kerak:

  >>> p = os.path.join (r"C: \\" , "book/folder/ " , " file.txt ")

  >>> os.path.normpath(p)

  'C: \\book\\folder\\ file.txt '

13.8. Kiritish/chiqarishni qayta yo’naltirish

Fayllar bilan ishlash usullarini ko’rib chiqishda, ***fileno()*** usuli bilan qaytariladigan qiymat har doim 2 dan katta bo’ladi, chunki 0 raqami ***stdin*** standart kiritish uchun, 1 raqami ***stdout*** standart chiqarish va 2 raqami ***stderr*** standart xatolar haqida xabar chiqishi uchun berilgan bo’ladi. Ushbu oqimlarning barchasi fayl obyektlari bilan bir oz o’xshashdir. Masalan, ***stdout*** va ***stderr*** oqimlari xabarlarni ko’rsatish uchun write() metodini, ***stdin*** oqimi esa foydalanuvchi ma’lumotlarini qabul qilish uchun readline() metodini qo’llab-quvvatlaydi. Agar ushbu oqimlarga fayl metodlarini qo’llab- quvvatlaydigan obyektga havola berilgan bo’lsa, unda siz standart oqimlarni mos keladigan faylga yo’naltirishingiz mumkin. Misol uchun quyidagicha bajarishimiz mumkin:

Faylni chiqarishni qayta yo’naltirish:

```
>>> import sys                          # sys modulini bog’laymiz
>>> tmp_out = sys.stdout                # Havolani sys.stdoutga saqlaymiz
>>> f = open (r” file.txt “ , “a” )     # Yozish uchun faylni ochamiz
>>> sys.stdout = f                      # Chiqarishni faylga qayta yo’naltiramiz
>>> print ( “Satrni faylga yozamiz” )
>>> sys.stdout = tmp_out                # Standart chiqarishni tiklaymiz
>>> print ( “Standart chiqarishga satrni yozamiz” )
Standart chiqarishga satrni yozamiz
>>> f.close ()                          # Faylni yopamiz
```

Ushbu misolda biz avval tmp_out o’zgaruvchisida standart chiqarishga havolani saqladik. Ushbu o’zgaruvchidan foydalanib, keyinchalik chiqarishni standart oqimga qaytarishingiz mumkin. Print() funksiyasi to’g’ridan-to’g’ri chiqarishni qayta yo’naltirishni qo’llab-quvvatlaydi. Buning uchun odat bo’yicha standart chiqarish oqimiga taalluqli fayl parametridan foydalanish kerak.

Masalan, faylga satrni quyidagicha yozish mumkin:

```
>>> f = open (r “ file.txt”, “a”)
>>> print ( “Satrni faylga yozamiz” , file=f)
>>> f.close ( )
```

Python 3.3. da qo’llab-quvvatlangan flush parametri ma’lumotlarni qidiruv buferdan faylga qachon to’g’ridan-to’g’ri saqlash kerakligini belgilashga imkon beradi. Agar uning qiymati False bo’lsa (odatga ko’ra), saqlash faqat faylni yopgandan so’ng yoki flush () usulini chaqirgandan so’ng amalga oshiriladi. Belgilash uchun Python interpretatori har safar print() funksiyasiga murojaat qilganda, saqlashni amalga oshiradi va ushbu parametrni True ga o’tkazadi.

Masalan:

```
>>> f = open (r” file.txt “ , “a” )
>>> print (“Satrni faylga yozamiz” , file = f, flush = True)
>>> print (“Boshqa bir satrni faylga yozamiz” , file = f, flush = True )
>>> f.close()
```

stdin standart kiritish buyrug’ini ham qayta yo’naltirish mumkin. Bunday holatda input() funksiyasi har bir murojaatda fayldan bitta qatorni o’qiydi. Fayl yakunlangandan so’ng EOFError istisnosini qaytaradi. Masalan, kiritish oqimini qayta yo’naltirish usuli yordamida fayl tarkibini ko’rib chiqaylik:

Faylni kiritishni qayta yo’naltirish:

```
# -*- coding: utf-8 -*
import sys                          # sys modulini bog’laymiz
tmp_in = sys.stdin                  # Havolani sys.stdinga saqlaymiz
f = open (r” file.txt “, “r”)       # Faylni o’qish uchun ochamiz
sys.stdin = f                       # Kiritishni qayta yo’naltiramiz
while True :
    try :
        line = input ( )            # Fayldan satrlarni sanaymiz
```

```
            print (line)          # Satrlarni chiqaramiz
        except EOFError :         # Agar fayl oxiriga yetsa
            break                 # Sikldan chiqib ketish bajariladi
    sys.stdin = tmp_in            # Standart kiritishni qayta tiklaymiz
    f.close()                     # Faylni yopamiz
    input()
```

Agar standart kiritish terminalga tegishli yoki yo'qligini bilishingiz kerak bo'lsa, siz isatty() metodidan foydalanishingiz mumkin bo'ladi. Agar obyekt terminalga murojaat qilayotgan bo'lsa metod **True** qiymatni aks holda **False** qiymatni qaytaradi.

Masalan:

```
>>> tmp_in = sys.stdin              # Havolani sys.stdinga saqlaymiz
>>> f = open (r " file.txt", "r")
>>> sys.stdin = f                   # Kiritishni qayta yo'naltiramiz
>>> sys.stdin.isatty ( )            # Terminalga murojaat qilinmaydi
False
>>> sys.stdin = tmp_in              # Standart kiritishni qayta tiklaymiz
>>> sys.stdin.isatty ( )            # Terminalga murojaat qilinadi
True
>>> f.close ( )                     # Faylni yopamiz
```

Shuningdek, standart kiritish/chiqarishni buyruqlar satri (командная строка) yordamida qayta yo'naltirishingiz mumkin. Masalan, C: \book papkasida tests.py faylini buyruqlar satri orqali kod bilan yarataylik. Deylik, tests.py faylining tarkibi quyidagicha bo'lsin:

```
# -*- coding : utf-8 -*
```

```
while True :
    try :
        line = input ()
        print (line)
    except EOFError:
        break
```

Biz buyruq satrini ishga tushiramiz va cd c:\book skripti orqali papkaga o’tamiz. Endi buyruqni bajarib, avval yaratilgan file.txt matnli faylining tarkibini namoyish etamiz (uning tarkibi har qanday bo’lishi mumkin):

```
C:\Python34\python.exe tests.py < file.txt
```

Siz shunga o’xshash tarzda standart chiqishni faylga yo’naltirishingiz mumkin. Faqat bu holatda < belgisi > belgisi bilan almashtirilishi kerak. Tests.py faylini quyidagicha o’zgartiramiz:

```
# -*- coding : utf-8
print ( “ String” )                    # Ushbu satr faylga yoziladi
```

Endi buyruqni bajarish orqali chiqarishni file.txt-ga yo’naltiramiz:

```
C:\Python34\python.exe tests.py > file.txt
```

Ushbu rejimda file.txt fayli ustiga yoziladi. Agar natijani fayl oxiriga qo’shishingiz kerak bo’lsa, >> belgilaridan foydalanish kerak. Masalan:

```
C:\Python34\python.exe tests.py >> file.txt
```

Stdoutdan foydalanib, to’g’ridan-to’g’ri konsol oynasida jarayonni bajarilish indikatorini yaratishingiz mumkin bo’ladi.

Muhokama uchun savollar va topshiriqlar

1. Pythonda fayllarni ochishda “mode” nimani belgilab beradi?
2. Windows OT da faylga absolut yo’lni belgilash qanday amalga oshiriladi?
3. Faylga yo’lni absolut va nisbiy belgilash orasidagi farqlar nima?
4. Yangi faylga yozishni tushuntirib bering
5. Fayllar bilan ishlashda qanday xatoliklar kuzatilishi mumkin?
6. Faylni qatorma-qator o’qish qanday?
7. Pythonda qaysi formatdagi fayllar bilan ishlash mumkin?
8. JSON formatida ma’lumotlar qanday ko’rinishda saqlanadi?
9. Fayllar bilan ishlashda xatoliklarni oldini olish uchun nima qilish kerak?
10. Fayllarga qayta yozishga bir necha misollar keltiring?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бейдер Д. Чистый Python. Тонкости программирования для профи. 2018 г.
2. Воган Л.Непрактичный Python: занимательные проекты для тех, кто хочет поумнеть. 2021 г.
3. Седер Наоми. Python. Экспресс-курс. 2019 г.
4. Райан Митчелл Современный скрапинг веб-сайтов с помощью Python. 2021
5. R. H. Ayupov. PYTHON dasturlash tili asoslari. O’quv-uslubiy qo‘llanma. Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2020, 118 bet.
6. Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. Python 3 и PyQt 5. Разработка приложений. — СПб.: БХВ-Петербург, 2016. — 832 с.: ил.

MAVZULAR BO’YICHA TESTLAR TO’PLAMI

1-dars. Python dasturlash tili bilan tanishish.

Python 3.0 versiayasi qaysi yilda chiqarilgan?

a) 2008
b) 2004
c) 1996
d) 2005

Python 1.0 versiayasi qaysi yilda chiqarilgan?

a) 1990
b) 2008
c) 1996
d) 2005

Python yaratuvchisi kim?

a) Gvido
b) Mante Python
c) Tim Berners Li
d) Yan Guk

Pythonga hos bo’lmagan hususiyat qaysi?

a) Komplyatsiya qilinadi.
b) Ko'plab platformalarda hech qanday o'zgartirishlarsiz ishlay oladi.
c) Dasturni yozish davomida quyi darajadagi detallarni, misol uchun xotirani boshqarishni hisobga olish shart emas.
d) Interpretatsiya (Интерпретируемый) qilinadigan til.

2-dars: Dastur tuzilishi. Izoxlar. Dastur natijasini chop etish. Ma’lumotlarni kiritish

Pythonda bloklarni belgilashda gulli (figurali) qavslardan foydalanish mumkinmi?

a) Mumkin, lekin tavsiya qilinmaydi
b) Ha, mumkin
c) Mumkin emas

d) Bazan mumkin, bazan mumkin emas

Pythonda bir qatorli izoh to’g’ri berilgan javobni aniqlang.

a) # bu izox;
b) % bu izox;
c) * bu izox;
d) $ bu izox;

Pythonda dastur natijasini chop etish uchun qaysi operator ishlatiladi?

a) print()
b) cout()
c) echo()
d) writeln()

Pythonda ma’lumotlarni kiritish uchun qaysi operator ishlatiladi?

a) input ()
b) print()
c) cin()
d) edit()

3-dars. O’zgaruvchilar. O’zgaruvchini nomlash

Pythonda o’zgaruvchilar qaysi kalit so’z bilan e’lon qilinadi?

a) Pythonda o’zgaruvchi e’lon qilinmaydi
b) var
c) let
d) input

Pythonda mantiqiy amal natijasi qanday boladi?

a) True yoki False(1 yoki 0)
b) Begin yoki end
c) int
d) float

Pythonda suzuvchi vergulli son turi qaysi so’z bilan ifoda qilinadi?

a) float
b) decimal
c) int
d) bool

Pythonda ro’yxat turi qaysi so’z bilan ifoda qilinadi?

a) list
b) dict
c) tuple
d) range

Pythonda lug’at turi qaysi so’z bilan ifoda qilinadi?

a) dict
b) list
c) tuple
d) range

Pythonda o’zgaruvchida qanday qiymat saqlanadi?

a) Obyektga havola
b) Son
c) Yacheyka
d) Satr

4-dars: Ma’lumot tipini aniqlash. Ma’lumot tipini o’zgartirish. O’zgaruvchini o’chirish

Pythonda ma’lumotni butun son tipiga o’zgartirish tug’ri ko’rsatilag javobni aniqalang.

a) int(<ma’lumot>)
b) float(ma’lumot)
c) str(ma’lumot)
d) bool(ma’lumot)

Pythonda o’zgaruvchini o’chirish konstruksiyasi qanday bo’ladi?

a) del <o’zgaruvchi>[, …, <o’zgaruvchi_N>]
b) delete <o’zgaruvchi>[, …, <o’zgaruvchi_N>]
c) rd <o’zgaruvchi>[, …, <o’zgaruvchi_N>]
d) clear <o’zgaruvchi>[, …, <o’zgaruvchi_N>]

5-dars: Operatorlar. Matematik operatorlar.

Pythonda “ / / ” amali qanaday ma’no anglatadi?

a) kami bilan yaxlitlanadigan bo’lish
b) qoldiqli bo’lish
c) darajaga ko’tarish

d) bo’lish

Pythonda “ % ” amali qanaday ma’no anglatadi?

a) qoldiqli bo’lish
b) kami bilan yaxlitlanadigan bo’lish
c) darajaga ko’tarish
d) bo’lish

Quyidagilardan qaysi biri o’z;ashtirish amali bo’lolmaydi?

a) **
b) +=
c) -=
d) /=

Mantiqiy (ikkilik) VA amali qaysi belgi bilan abelgilanadi?

a) &
b) |
c) ^
d) <<

6-dars: Shartli operatorlar. Taqqoslash operatorlari. if...else operatori

Pythonda >>> True + 2 amal natijasi nimaga teng?

a) 3
b) “True+2”
c) 2
d) 0

Pythonda bool (20) funksiya qanday qiymat qaytaradi?

a) True
b) 0
c) False
d) 20

Pythonda bool (“0”) funksiya qanday qiymat qaytaradi?

a) True
b) False
c) 0
d) 20

Pythonda qaysi operator ikkita o’zgaruchi bir obyektga havola qilinganini tekshiradi?

a) is
b) in
c) if
d) not

Pythonda qaysi operator qiymatni qator yoki ketma-ketlikka tegishlilikka tekshiradi?

a) in
b) is
c) if
d) not

Pythonda “VA” mantiqiy amalai qaysi so’z bilan ifoda qilinadi?

a) AND
b) OR
c) NOT
d) IF

Pythonda “YOKI” mantiqiy amalai qaysi so’z bilan ifoda qilinadi?

a) OR
b) AND
c) NOT
d) IF

7-dars. Sikl operatorlari. For sikli. range() va enumerate() funksiyalari

Javoblar orasidan qaysi operator Pythonda takrorlanishni ta’minlaydi?

a) while
b) if
c) switch
d) numerate

Pythonda range funksiyasi formati to’g’ri berilgan javobni belgilang?

a) range ([<boshlang’ich qiymat>,] <Tugash> [, <Qadam>])
b) range ([<boshlang’ich qiymat>,] [<Qadam>], <Tugash>)
c) range (<Qadam>)
d) range ([<Qadam>,] [<boshlang’ich qiymat>,] <Tugash>)

Pythonda range() funksiyasi qanday vaziafa bajaradi?

a) Ketma-ketlikni ifodalaydi
b) Sonlarni yigindisini qayataradi
c) Darajaga ko’taradi
d) Kvadrat ildiz chiqaradi

Pythonda for operatori qanaday maqsadda qo’llaniladi?

a) takrorlanishlarni hisoblash va ketma-ketliklar bilan ishlash uchun foydalaniladi;
b) tarmoqlanishlarni amaliga oshirishda va sonlar bilan ishlashda qo’llaniladi;
c) murakkab ifodalarni yozishda foydalaniladi;
d) ketma-ketliklarni ifodalsh uchun va tarmoqlarga ajratsish uchun ishlatiladi;

Pythonda ushbu dastur natijasi nimaga teng?

```
s=0
for i in range(1,10,2):
    s=s+i
print(s)
```

a) 25
b) 10
c) 45
d) 0

8-dars. While sikli. continue operatori. break operatori

Pythonda qaysi operator sikldagi barcha instruksiyalar bajarilmay, siklning navbatdagi iterasiyasiga o’tish imkonini beradi

a) continue
b) break
c) for
d) while

Pythonda qaysi operator sikl bajarilishini zudlik bilan to’xtatish imkonini beradi

a) break
b) continue
c) for
d) while

Pythonda while operatori qanday maqsadda qo’llaniladi?

a) takrorlanishlarni tashkil etish uchun
b) tarmoqlanishi tashkil etish uchun
c) ichma-ich takrorlanishni tashkil etish uchun
d) shartsiz takrorlanishlarni tashkil etish uchun

Pythonda ushbu dastur natijasi nimaga teng?

```
i=1
s=1
while i<10:
    s+=i
    i+=1
print(s)
```

a) 46
b) 45
c) 1
d) 0

Pythonda ushbu dastur natijasi nimaga teng?

```
i=1
s=0
while i<10:
  if i==5: break
  s+=i
  i+=1
print(s)
```

a) 10
b) 45
c) 46
d) 0

9-dars. Sonlar. Sonlar bilan ishlashning tashqi funksiya va metodlari.

Python 3 butun son tipi qaysi so’z bilan belgilanadi?

a) int
b) float
c) decimal
d) complex

Python 3 kasr sonni qanday ifodalash mumkin?

a) Fraction() funksiyasi yordamida
b) complex() funksiyasi yordamida
c) float xizmatchi so’zi yordamida
d) ifodalab bo’lmaydi

Pythonda kompleks son yozilish formati to’g’ri berilgan javobni tping?

a) <Haqiyqiy qism> + <Mavhum qism>J
b) <Haqiyqiy qism>J + <Mavhum qism>
c) <Haqiyqiy qism>+J + <Mavhum qism>
d) <Haqiyqiy qism>+ <Mavhum qism>+J

Pythonda o’nlik sonni ikkilik sanoq sistemasiga o’tkazish uchun qayis funksiya ishlatiladi?

a) bin (<Son>)
b) oct (<Son>)
c) hex (<Son>)
d) abs (<Son>)

Pythonda o’nlik sonni sakkizlik sanoq sistemasiga o’tkazish uchun qayis funksiya ishlatiladi?

a) oct (<Son>)
b) bin (<Son>)
c) hex (<Son>)
d) abs (<Son>)

Pythonda o’nlik sonni o’n oltilik sanoq sistemasiga o’tkazish uchun qayis funksiya ishlatiladi?

a) hex (<Son>)
b) oct (<Son>)
c) bin (<Son>)
d) abs (<Son>)

Pythonda divmod (x, y) funksiyasi qanday amal bajkaradi?

a) Sonning butun va qoldiq qismini qaytaradi

b) Sonning butun qismini qaytaradi
c) Sonning qoldiq qismini qaytaradi
d) Sonni yaxlitlaydi

Pythonda sonni radiandan gradusga o'tkazish uchunqaysi funksiya qo'llaniladi?

a) degrees()
b) radians()
c) exp()
d) ceil()

Pythonda sonni eng yaqin katta songa yaxlitlash funksiyasi qaysi?

a) ceil ()
b) floor ()
c) fabs ()
d) round ()

10-dars. math moduli. Matematik funksiyalar. random moduli. Tasodifiy son generasiyasi.

Pythonda random() funksiyasining vazasi nima?

a) dan 1.0 gacha tasodifiy sonlarni qaytaradi
b) Tasodifiy sonlar diapazonini aniqlaydi
c) Tasodifiy sonlar modulini chaqirib beradi
d) 1 dan 10 gacha tasodifiy sonlarni qaytaradi}

Pythonda uniform () funksiyasining vazasi nima?

a) Ko'rsatilgan diapazondagi haqiyqiy tasodifiy sonlar qaytaradi
b) dan 1.0 gacha tasodifiy sonni qaytaradi
c) Tasodifiy sonlar modulini chaqirib beradi
d) 1 dan 10 gacha tasodifiy sonlarni qaytaradi

Pythonda randint () funksiyasining vazasi nima?

a) Ko'rsatilgan diapazondagi butun tasodifiy sonni qaytaradi
b) 0.0 dan 1.0 gacha tasodifiy sonni qaytaradi
c) Tasodifiy sonlar modulini chaqirib beradi
d) 1 dan 10 gacha tasodifiy sonlarni qaytaradi

Pythonda qaysi funksiya berilgan ketma-ketlik (satr, ro'yxat, kortej) dagi tasodifiy elementni qaytaradi?

a) choice (<Ketma-ketlik>)
b) shuffle (<Ro'yxat> [, <0.0 dan 1.0 gacha sonlar>])
c) sample (<Ketma-ketlik>, <Elementlar soni>)
d) randrange ([<Boshlanish>,] <Tugash> [, <Qadam>])

11-dars. Satrlar va ular ustida amallar. Satr yaratish. Maxusu belgilar. Satrlar bilan ishlash amallari. Satrlarni formatlash. format() metodi.

Joriy sana vaqtning xar hil formatlangan natijalarini chiqarishga imkon beruvchi modul qaysi?

a) datetime
b) timelimit
c) timeit
d) calendar

Qaysi funksiya satr formatiga muvofiq sana satrini qaytaradi

a) strftime
b) stringdate
c) stringtime
d) struct_time

Datetime moduli nechta sinfdan iborat bo'ladi?

a) 5 ta
b) 3 ta
c) 4 ta
d) 6 ta

Vaqtni ob'ekt sifatida aks ettirish datetime modulining qaysi sinfida amalga oshiriladi?

a) time
b) timedelta
c) tzinfo
d) timelimit

Qaysi funktsiya belgilangan vaqt davomida skriptning bajarilishini to'xtatadi?

a) sleep
b) turn_off
c) stoptime
d) localtime

12-dars. Funksiyai aniqlanishi va uni chaqirish, Fiunksiyani aniqlanishi joylashuvi

Dasturda yozilgan funksiyalar nima uchun xizmat qiladi?

a) dasturni ixchamlashtiradi va ishlash tezligini oshiradi
b) dasturni murakkabligini ta’minlaydi
c) dasturni mukammalligini ta’minlaydi
d) dasturni tezlashtirib, natijani formatlaydi

Python dasturlash tilida funksiya qaysi kalit so’z yordamida hosil qilinadi?

a) def
b) function
c) functional
d) steff

Funksiya natijasini qaytarish qaysi kalit so’z orqali amalga oshiriladi?

a) return
b) restart
c) rework
d) label

Parametrsiz funksiyani chaqirish qanday amalga oshiriladi?

a) def print_ok():
   print ("Amalni muvaffaqiyatli bajarilishi haqida xabar")
b) def echo (m) :
   print (m)
c) def summa (x, y) :
   return x + y
d) def unparametric(alpha):
   print()

Funksiya yaratishda parametrlar bir nechta bo’lsa ular bir-biridan qanday ajratib ko’rsatiladi?

a) Vergul
b) Ikki nuqta
c) Nuqtali vergul
d) Yotiq chiqiz (slesh)

Jakbarov Odiljon Otamirzaevich

Namangan muhandislik - qurilish institutining Informatika va AT kafedrasi mudiri, texnika fanlari nomzodi, dotsent. Matematik modellashtirish, Axborot texnologiyalari, Dasturlash hamda Web dasturlash bo`yicha mutaxassis. 2 ta o`quv qo`llanma, 70 dan ortiq ilmiy – uslubiy ishlar muallifi, dasturiy mahsulotlar yaratish bo`yicha 6 dan ortiq guvohnomalari mavjud. 12 dan ortiq Kasb ta`limi (Informatika va AT) mutaxassislik bo`yicha magistrlik dissertasiyalariga rahbarlik qilgan.

Goyipov Umidjon Gulomjonovich

Namangan muhandislik - qurilish institutining Informatika va AT kafedrasi o'qituvchisi. Axborotlarga ishlov berishni algoritmlash hamda Web dasturlash bo`yicha mutaxassis. 30 dan ortiq ilmiy teziz va maqolalar, 10 dan ortiq uslubiy ishlar muallifi. Dasturiy mahsulotlar yaratish bo`yicha 6 dan ortiq guvohnomalari mavjud.

Akbarov Bahriddin Xusniddin o'g'li

Namangan muhandislik-qurilish institutining "Informatika va AT" kafedrasi o'qituvchisi. Algoritmlash asoslari, Tizimlar nazariyasi asoslari hamda Python dasturlash tili bo'yicha mutaxasis. 10 dan ortiq ilmiy tezis va maqolalar, 5 dan ortiq uslubiy ishlar muallifi.

Terishga __.__.20__ yilda berildi. Bosishga __.__.20__ yilda ruxsat etildi. Shrift garniturasi Times New Roman Uzb. Oq qog’ozga ofset usulida bosildi. Bichimi 60x84 1/16. Shartli bosma tabog’i 8.5. Nashriyot bosma tabog’i 8.5 Adadi 200 nusxa.

Buyurtma №___. Bahosi kelishilgan narxda. «Namangan» nashriyoti. (Namangan shahri, Navoiy ko‘chasi,36.) Nashriyot lisenziya raqami AN-156

2009 yil 14 avgustda berilgan.